

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**5630100-ekologiya va atrof muhit muxofazasi ta'lim yo'nalishi
bitiruvchisi**

ABDUVALIYEVA GAVHAROIY QAXRAMON QIZINING

**BALIQCHI TUMANINING EKOLOGIYASINI BAHOLASH
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta'lim yo'nalishi
Bitiruvchi 4-kurs talabasi G. Abduvaliyeva
Raxbar: g.f.d. prof. B.A. Kamolov



Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.
Kafedraning ___ sonli bayonnomasi. « ___ » 2019 yil.

Namangan – 2019 yil

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3-5
I BOB:	BALIQCHI TUMANINING TABIATI VA	6-22
	IQTISODIYOTI	
1.1.	Baliqchi tumanining joylashgan o' rni va chegaralari.....	6-9
1.2.	Baliqchi tumanida sanoat tarmoqlarining asosiy ko'rsatkichlari.....	10-15
1.3.	Tumanda qishloq xo'jaligining o'ziga hos hususiyatlari	15-22
II BOB:	BALIQCHI TUMANI IQTISODIYOTINI EKOLOGIK	23-50
	BAHOLASH	
2.1.	Baliqchi tumanining hozirgi ekologik holati va unga ta'sir etuvchi omillar	23-26
2.2.	Ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi islohotlar	27-43
2.3.	Tuman tabiatdan foydalanish va muhofaza qilishning kelajak istiqbollari	43-50
	XULOSA.....	51
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	52-54

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillikka erishgach, O'zbekiston tabiiy resurslarning nobarqaror boshqaruvi bilan bog'liq murakkab ekologik muammolar, shuningdek kommunal, sanoat manbalari va sug'oriladigan maydonlardan qaytgan oqava suvlar natijasida vujudga kelgan yuqori ifloslanish darajasini meros qilib oldi. Bular ko'p darajada qishloq xo'jaligi, energetika va sanoat tarmoqlaridagi jiddiy tuzilmaviy muammolar tufayli ro'y berib haligacha mamlakat atrof muhiti va tabiiy resurslarini boshqarish sohasidagi ko'plab jiddiy muammolarning ilk sababchisi bo'lib qolmoqda. Hozirgi davrga kelib ekologik nobarqarorlik o'choqlari deyarli barcha viloyatlarda mavjud. Yuqori ekologik nobarqarorlik asosan lokal tusga ega.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining 5.1-bandi, 4-xatboshida esa "Atrof tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarning oldini olish" masalasi davlat siyosati darajasiga olib chiqilgan. Mamlakatimizda umumxalq mulki bo'lgan yer boyliklaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilishga mustaqillik yillarida e'tibor kuchaydi. Andijon viloyatining Baliqchi tumanida ham atrof-muhit holati anchagina yomon holatda ekanligini ko'rishimiz mumkin. Atrof muhit muammolari doirasida Baliqchi tumani hududlari uchun quyidagilar katta ahamiyatga ega:

- ✓ atmosfera havosining ifloslanishi;
- ✓ suv resurslarining ifloslanishi va chuchuk suv yetishmasligi;
- ✓ aholining toza ichimlik suvi bilan yetarlicha ta'minlanmaganligi;
- ✓ tuproq sho'rlanishi va tanazzulga uchrashi;
- ✓ qattiq chiqindilar, shu jumladan, zaharli sanoat chiqindilarining to'planishi;
- ✓ oziq-ovqat mahsulotlari ifloslanishi;
- ✓ turlar xilma-xilligi majmualarining biologik mahsuldorligida pasayish va qisqarish.

Respublikada yangi milliy qonunlar yaratilishi, tashkiliy tuzilmalar tashkil qilinishi hamda ochiq jamiyatga va bozor iqtisodiyotiga asta-sekin o'tish bilan bir vaqtda, meros bo'lib qolgan atrof muhitni boshqarish tizimini takomillashtirish, yanada samarali siyosat va institutsional o'zgarishlarni amalga oshirishga harakat qilinmoqda. O'zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha qator qonunlar, atrof muhitni boshqarish va tabiatdan foydalanish bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq 250 dan ortiq me'yoriy va boshqaruvchi hujjatlar qabul qilindi. Bu borada ekologik xolatni iloji boricha zo'riqtirmasdan tumanlardagi ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatni, sanoat va qishloq xo'jaligini, aholi ta'minotini rivojlantirish bugungi kunning eng dolzarb masalasi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari. Fan va texnikaning rivojlanishi davrida insoniyatni tabiatga va tabiiy resurslarga salbiy ta'siri ortib bormoqda. Insonlar turmush tarzini yaxshilash hamda o'zlariga qulay sharoit yaratish uchun turli yangiliklar va kashfiyotlar qilinmoqda. Baliqchi tumanining ekologik holatini yaxshilash doirasida qilinadigan ishlar bitiruv malakaviy ishning maqsadi bo'lib hisoblanadi. Bu maqsadlarga erishishda quyidagi vazifalar kelib chiqadi.

- atmosfera havosi ifloslanishining oldini olishga doir zaruriy choralar ko'rish;
- suv resurslarining ifloslanishi va chuchuk suv yetishmasligini chuqur tahlil qilish;
- tuproq sho'rlanishi va tanazzulga uchrashi sabablarini o'rganib, takliflar kiritish;
- qattiq chiqindilar, shu jumladan, zaharli sanoat chiqindilarining to'planishi va ularni qayta ishlashga doir chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti va predmeti. Andijon viloyati Baliqchi tumani bitiruv malakaviy ishining obyekti, baliqchi tumani ekologik holatini baholash ishning predmeti bo'lib hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishining ahamiyati shundaki, unda Baliqchi tumanining ekologik-iqtisodiy-ijtimoiy holati statistik ma'lumotlar asosida ilk bor o'rganilgan. Ekologik holatdagi kamsilliklar aniqlangan va ularni bartaraf etish yo'llari belgilangan. Tuman iqtisodiyotini ekologik optimallashtirish imkoniyatlari tahlil etilgan.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va xajmi. Bitiruv malakaviy ishi 52 ta sahifadan iborat bo'lib, ish kirish, 2 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, jadvallardan iborat.

I BOB. BALIQCHI TUMANINING TABIATI VA IQTISODIYOTI

1.1. Baliqchi tumanining joylashgan o'ri va chegaralari.

Baliqchi tumani Andijon viloyatining shimoli-g'arbiy qismida, Qoradaryo sohilida joylashgan bo'lib, 1926 -yil 29- sentyabrda tashkil etilgan. Tuman Namangan viloyatining Norin tumani va Andijon viloyatining Izboskan, Shaxrixon, Oltinko'l, Bo'z, Ulug'nor tumanlari bilan chegaradosh. Maydoni 0,34 ming km². Baliqchi tumanida 9 qishloq fuqarolari yig'ini (Alimbek, Baliqchi, Bo'ston, Guliston, Oxunboboev, Siza, Xo'jaobod, Eski Haqqulobod, O'rmonbek) bor. Markazi-Baliqchi shaharchasi. Baliqchi tumanining hududiy ko'rsatkichlari 1-jadvalda berilgan.

1.1.1-jadval

Baliqchi tumanining hududiy ko'rsatkichlari

Tuman tashkil topgan sana	-	“24” 12.1962 yil
Hududi (yer maydoni)	-	0,34 ming.kv.km
Chegara uzunligi	-	175,5 km
Namangan viloyati bilan	-	79 km
Ulug'nor tumani bilan	-	20 km
Bo'z tumani bilan	-	1,8 km
Oltinko'l tumani bilan	-	36,2 km
Izboskan tumani bilan	-	18,5 km
Shaxrixon tumani bilan	-	20 km

Tabiati. Tuman relyefi tekisliklardan iborat. Geologik tuzilishida tuman hududi cho'kindi jinslardan tashkil topgan. Iqlimi keskin kontinental. Tumanning shimoli va sharqidan Qoradaryo, Andijonsoy oqib o'tadi. Qoradaryo haqida gapiradigon bo'lsam Qoradaryo- Andijon viloyatidagi daryo (boshlanish qismi Qirg'izistonda). Sirdaryoning asosiy irmoqlaridan biri. Qoradaryo Baliqchi tumani yaqinidagi Norin daryosi bilan qo'shilib, Sirdaryoni hosil qiladi. Daryoning o'rtacha yillik suv sarfi Uchtepa yaqinida 136 m³ /sek.Shu joyda yillik eng ko'p suv sarfi 265m³/ ga yetgan. Daryo qor va muzlik suvlaridan to'yinadi.Yillik

oqimining 55 foiz mart-iyul oylariga to'g'ri keladi. Daryo suvining o'rtacha loyqaligi 1kg/m^3 . Sovuqbuloq bulog'i, Usmon Yusupov nomidagi Katta Fargo'na kanali, Quyi Ulug'nor kanali, Kuyganyor nasos stansiyasi, Chinobod va Asaka tashlamalari bor. Tuman adir qismining tuprog'i arzik, qolgan yerlarda bo'z tuproq. Bahorda adirlar efemer o'simliklari bilan qoplanadi. Ekin ekilmaydigan yerlarda shuvoq-sho'ra o'sadi. Yovvoyi hayvonlar ham uchraydi. Sudraluvchilar, Kemiruvchilar, Qushlar bor. Yovvoyi hayvonlardan tulki, bo'ri, chiyabo'ri, quyon yashaydi. Yanvarning o'rtacha t-rasi-4 gradus, iyulniki 26 gradus. Yiliga o'rtacha 195-210 mm yog'in tushadi. Vegetatsiya davri 235 kun. Tuman hududidan Qoradaryo, Mazgilsoy, Chinobodsoy va Katta Andijon kanali oqib o'tadi. Tuprog'i o'tloqi bo'z, kuchsiz sho'rlangan tuproq. O'simliklardan sho'ra, shuvoq, momaqaymoq, qamish, mingdevona, yantoq, ajriq, yulg'un, oqbosh, otquloq, qirqbo'g'in, g'umay, qo'ypechak, yalpiz o'sadi. Echkemar, toshbaqa, tulki, quyon, ilon, kaltakesak, qushlardan laylak, o'rdak, chumchuq, sufito'rg'ay, qarg'a, musicha yashaydi.

1.1.2 - jadval

Tumanning demografik ko'rsatkichlari

Aholi soni (01.01.2018y.)	-	192 025 ming kishi
- Shaxar aholisi	-	66 644 kishi
<i>jamiga nisbatan foiz hisobida</i>	-	<i>34,7 foiz</i>
- Qishloq aholisi	-	125 381 kishi
<i>jamiga nisbatan foiz hisobida</i>	-	<i>65,3 foiz</i>
Aholi zichligi (1 kv.km.ga)	-	564.8 kishi
Shaharchalar (<i>shahar tipidagi posyolkalar</i>)	-	3 ta
Aholi punktlari	-	44 ta
Mahalla fuqarolar yig'inlari	-	65 ta
Xonadonlar soni	-	33251 ta
Oilalar soni	-	52 190 ta

Aholining jinsi va yoshi bo'yicha tarkibi tuman aholisining jinsini taqsimotida erkaklar 50.5% ni, ayollar esa 49.5% ni tashkil etadi. Oradagi farq juda kichik. Shu jumladan yosh jihatidan oladigon bo'lsak 0-1 yoshgacha jami soni 4310 kishini tashkil etadi. Bundan erkaklar 2241, ayollar esa 2068 kishini tashkil etadi. Shundan 80-100 yoshlilarni oladigon bo'lsak erkaklar soni 537 kishi, ayolar esa 791 kishini tashkil qilyapdi. Bu holatni solishtiradigon bo'lsak Baliqchi tumani hududida o'lim ayollarga nisbatan erkaklarda ko'p ekanligini ko'rishimiz mumkin. Aholining tabiiy va mexanik harakati 1.2 - jadvalda keltirilgan. Ko'rinib turibdiki keltirilgan jadvalda 1991 - 2000 - 2010 – 2016 - 2017 –yillar keltirilgan. Bu jadvalda tug'ilganlar, vafot etganlar, aholining tabiiy o'sishi, kelganlar, ketganlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Baliqchi tumanida aholi soni juda ham bo'lib shundan solishtiradigon bo'lsak 1991- yilda tug'ilganlar soni 5278 ta tashkil etgan, bu holat 2017 – yilga kelib 4325 tani tahkil etgan bundan korinib turibdiki tug'ilganlar soni kamaygan. Vafot etganlar soni esa huddi shu yillarda 1991-yil 910 tani tashkil qilgan 2017- yilda esa 991 tani tashkil etagan eski yilga qaraganda 2017- yilda vafot etganlar soni ko'paygan. Bu holatni Baliqchi tumani ekologik holatida baholaydigon bo'lsam tumanda ekologik holat ancha yomonlashgan.

1.1.3 -jadval

Aholining tabiiy va mexanik harakati

Ko'rsatkichlar nomi	1991 yil	2000 yil	2010 yil	2016 yil	2017 yil
Tug'ilganlar	5278	3342	4742	4 429	4325
Vafot etganlar	910	721	1003	967	991
Aholining tabiiy o'sishi	4368	2621	3706	3 462	3334
Kelganlar	902	721	598	314	104
Ketganlar	713	659	487	326	420
Migratsiya saldosini (+;-)	-15	-12	-10	-0.9	-316
Jami aholi soni	110541	150 454	172 648	189 007	192 025
Aholining o'tgan yilga nisbatan o'sishi (%)	-	102	104	101,9	101,6

1.1.4-jadval

Aholining millatlar bo'yicha tarkibi

T/r	Millatlar nomi	Jami aholi soni (kishi)	Jamiga nisbatan ulushi (foiz)
	Jami:	192 025	100
1.	O'zbeklar	178391	92,9
2.	Ruslar	1075	0,6
3.	Tatarlar	576	0,3
4.	Qirg'izlar	6721	3,5
5.	Tojiklar	2304	1,2
6	Qozoqlar	58	0,03
7	Turkmanlar	20	0,01
8	Boshqa millatlar	2880	1,5

Tuman xo'jaligi. Tuman asosan, paxta va g'allachilikka ixtisoslashgan. Tumanda 6 ta sanoat korxonasi bor: Baliqchi noto'qima matolar ishlab chiqarish aksiyadorlik jamiyati, Alisher Navoiy nomidagi Interneyshnl O'zbek-Amerika qo'shma korxonasi, Chinobod paxta tozalash aksiyadorlik jamiyati, Xo'jaobod sport buyumlari ishlab chiqarish aksiyadorlik jamiyati, Baliqchi non ishlab chiqarish aksiyadorlik jamiyati, "Baliqchi tongi" aksiyadorlik jamiyati. 2 mexanizatsiyalashgan ko'chma aksiyadorlik jamiyati bo'lib, biri suv inshootlari qurish va yangi yerlarni o'zlashtirish bilan shug'ullanadi, ikkinchisi xo'jaliklararo qurilish boshqarmasi. Bo'rdoqchilik bazasi, Baliqchi va Chinobod mashina traktor parklari mavjud. Tumanda Baliqchi mat aksiyadorlik jamiyati. Chinobod matlubot aksiyadorlik jamiyati faoliyat ko'rsatadi. Tumanda 1 ta qo'shma korxona, mingdan ortiq kichik va xususiy korxona mavjud. Bulardan eng mashhurlari: "Muhammad" savdo va ishlab chiqarish firmasi, "Nargiz" firmasi, "Navro'z -9" savdo ishlab chiqarish firmasi, Chinobod fermer xo'jaligi. Xo'jaliklar chorvachilik, bog'dorchilik, pillachilik, polizchilik, sabzavotchilik va sholikorlik

bilan shug'ullanadi. Qishloq xo'jaligida sug'oriladigan yerlar 23,0 ming ga, ekinzorlar 19,0 ming ga, shu jumladan 11,3 ming ga yerga paxta 6,0 ming ga yerga bug'doy, 0,3 ming ga yerga sabzavot, 0,05 ming ga yerga kartoshka, 1,3 ming ga yerga yem-xashak ekinlari ekiladi. Baliqchi tumanida 19 jamoa va shirkat xo'jaligi, 525 fermer xo'jaligi bor Xayrixon Ergasheva nomidagi, "Chinobod", "Paxtakor", "O'zbekiston", A.Mo'minov nomidagi, "Bo'ston", Ulug'bek nomidagi shirkat xo'jaliklari tumandagi yirik va mashhur xo'jaliklardir. Baliqchi tumani 2000 yilda qariyb 45 ming tonna paxta 45 ming tonnadan ziyod bug'doy topshirib, shartnoma rejasini ortig'i bilan bajardi. Tuman jamoa va shaxsiy xo'jaliklarida 37,9 ming qoramol, 26-7 ming qo'y va echki, 70,1 ming parranda boqiladi. Yaqin temir yo'l stantsiyasi - Haqqulobod (tuman markazidan 29 km). 1999/2000 o'quv yilida 52 umumiy ta'lim maktabi bo'lib, 32,7 ming o'quvchi 1 gimnaziyada 252 o'quvchi, 1 akademik litseyda 207 o'quvchi, 1 maxsus maktab-internatda 250 o'quvchi, 2 kollejdagi 1200 o'quvchi, 1 iqtisodiyot litseyida 251 o'quvchi ta'lim oladi. Madaniyat saroyi, markaziy kutubxona, musiqa maktabi, 50 ommaviy kutubxona, 13 madaniyat uyi, ijodkorlar uyi, 2 ko'chma klub, 740 o'rinli 4 kasalxona va dispanser, 10 qishloq ambulatoriyasi, 42 tibbiyot punkti bo'lib, ularda 250 vrach, 1996 nafar o'rta ma'lumotli tibbiy hodimlar ishlamoqda.

1.2.Baliqchi tumanida sanoat tarmoqlarining asosiy ko'rsatkichlari.

Mamlakat yoki uning ayrim hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko'p jihatdan sanoat taraqqiyotiga bog'liq. Zero, taraqqiy etgan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanish tarixiga nazar tashlasak, ushbu mamlakatlar aynan sanoatni rivojlantirish orqali hozirgi yuksak natijalarga erishganini guvohi bo'lamiz.

Sanoat mahsulotlari tarkibida xalq iste'mollari ulushi nihoyatda past bo'lib, 2017 yilda Baliqchi tumanida bu ko'rsatkich 58,4% ni tashkil etdi (o'rtacha viloyat ko'rsatkichi - 61,6%). Aholi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan sanoat tovarlarining bor-yo'g'i 14,9% nigina tuman hududida ishlab chiqarilishi ham o'ziga xos salbiy jihat hisoblanadi (o'rtacha viloyat ko'rsatkichi - 38,8%).

1.2.1-jadval

2000-2011 yillarda Baliqchi tumanida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi

(foiz hisobida)

Ko'rsatkichlar nomi	Yillar											
	2000	2001	2002	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011
Andijon viloyati												
Sanoat ishlab chiqarish	100,0	120,8	135,3	152,9	167,3	181,3	201,1	216,1	249,0	281,4	348,1	404,1
XIM ishlab chiqarish	100,0	118,0	136,5	155,6	171,8	185,1	210,2	235,9	274,3	289,5	334,3	418,6
Sanoat mahsulotlari tarkibida XIM ulushi	68,2	59,1	58,1	52,1	49,8	47,4	49,8	55,5	61,3	61,7	59,0	61,6
Ishlab chiqarilgan XIMning chakana savdo hajmidagi salmog'i, %	48,9	38,2	33,5	35,6	40,2	35,8	32,5	31,4	35,1	33,3	33,5	38,8
Baliqchi tumani												
Sanoat ishlab chiqarish	100,0	117,5	129,5	158,2	170,9	222,5	196,0	305,4	361,6	362,1	481,1	553,2
XIM ishlab chiqarish	100,0	109,5	121,8	150,5	152,3	171,3	210,1	258,0	436,0	407,3	592,4	736,6
Sanoat mahsulotlari tarkibida XIM ulushi	36,6	19,7	28,4	15,9	12,6	24,3	42,1	37,4	47,1	42,8	52,0	58,4
Ishlab chiqarilgan XIMning chakana savdo hajmidagi salmog'i, %	10,6	5,7	6,6	5,9	5,0	11,7	11,1	12,9	8,3	8,6	9,6	14,9

Manba: Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisoblagan.

Ushbu zavod tumandagi dastlabki sanoat korxonasi bo'lib, u 1936 yili tashkil topgan. 2006-2010 yillarda 31,3 ming tonna paxta tolasi ishlab chiqarilgan bo'lib, shundan 25,1 ming tonnasi, ya'ni 80 % dan ko'prog'i eksportga jo'natilgan.

“Avtosanoat plast” korxonasi rekonstruktsiya ishlari nihoyasiga yetgandan keyin «GM-O'zbekiston» qo'shma korxonasida ishlab chiqarilayotgan “SPARK” rusumli avtomobillarga butlovchi qismlar tayyorlab beradi. Umumiy qiymati 302 ming AQSH dollari bo'lgan uskunalar Xitoydan olib kelinadi. Tuman hududida joylashgan sanoat korxonalari faoliyatidagi samaradorlik ko'rsatkichlari o'rganildi. Sanoat korxonalarida mavjud quvvatlardan foydalanish darajasi o'rganildi. Natijalar bu sohada katta tafovutlar borligini ko'rsatadi.

1.2.2 - jadval

Sanoat korxonalarining mulk shakllari bo'yicha tarkibi

№	Mulk shakllari	Korxonalar soni	foizda	Band ishchi-xizmatchilar soni	foizda	Sanoat ishlab chiqarish hajmi, mln.so'm	Foizda
1.	Ochiq aksionerlik jamiyat (OAJ)	2	9,5	540	45,0	12143,4	69,8
2.	Yopiq aksionerlik jamiyat (YoAJ)	2	9,5	75	6,3	298,2	1,7
3.	Mas'uliyati cheklangan jamiyat (MCHJ)	9	42,8	271	22,6	1047,8	6,0
4.	Qo'shma korxona (QK)	3	14,4	277	23,1	3854,9	22,1
5.	Xususiy korxona (XK)	5	23,8	36	3,0	64,5	0,4
	Jami	21	100,0	1199	100,0	17408,8	100,0

Manba: Baliqchi tumani statistika bo'limi ma'lumotlari asosida muallif hisoblagan

Sanoat korxonalari mulk shakllari tarkibida eng zaif bo'g'in – xususiy korxonalar hisoblanadi. Bunday korxonalar soni 5 ta bo'lib, ularda band xodimlar jami tuman ko'rsatkichiga nisbatan 3,0 % ni, yalpi mahsulot bo'yicha esa atigi 0,4% ni tashkil etadi.

Ma'lumki, mamlakatimiz mintaqaviy iqtisodiy siyosatida maxsus davlat dasturlarini qabul qilish va amalga oshirish yo'li bilan iqtisodiy rivojlanish darajasi past bo'lgan hududlarni qo'llab-quvvatlash ustuvor yo'nalishlardan bo'lib

hisoblanadi. Dasturning 3-ilovasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish, ularni qayta ishlash va saqlash bo'yicha ishlayotgan quvvatlarni kengaytirish va yangi quvvatlar tashkil etish yuzasidan chora-tadbirlar belgilangan. Unga ko'ra Baliqchi tumanidagi "Sahovat" fermer xo'jaligi kuniga 1,0 tn. meva va sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash tsexini 2011 yil 2-chorakda ishga tushirish rejalashtirilgan. Biroq, loyihachining moliyaviy imkoniyati mavjud emasligi sababli loyiha amalga oshirilmagan.

2009-2011 yillarda investitsion loyihani amalga oshirish maqsadida quyidagi investitsion takliflarni ishlab chiqqan:

1. 2009 yilda plastik cherepitsa ishlab chiqarishni tashkil etish loyihasi – ikkilamchi xomashyo topish, ishlab chiqariladigan mahsulotni realizatsiya qilish muammolari hamda korxona aholi turar joy hududida joylashganligi va qurilish materiallari ishlab chiqarish ekologik me'yorlarga to'g'ri kelmasligi tufayli ish to'xtab qoldi.

2. 2010 yilda makkajo'xori donidan glyukoza-fruktoza siropi ishlab chiqarishni tashkil etish loyihasi – ishlab chiqilgan biznes-reja bank talabi darajasida emasligi, tashabbuskorning 2007 yil aprel oyidan hozirgi kungacha bo'lgan davrda hisob raqamidagi amalga oshirilgan mablag' aylanmasi bor-yo'g'i 1,6 mln. so'mni tashkil etganligi, biznes-rejada asosiy xomashyo bo'lmish makkajo'xori tannarxi hozirgi kungacha 2,5 marotaba oshib loyihaning iqtisodiy norentabelligiga olib kelganligi.

3. 2011 yilda sog'lomlashtirish markazi tashkil etish bo'yicha taklif kiritilgan, biroq uning biznes-rejasi ishlab chiqilmaganligi, moliyaviy manbalar aniq bo'lmaganligi va yangi loyihaning mavjud ob'ektning maqsadli foydalanilishiga to'g'ri kelmasligi.

Xukumat tomonidan mas'ul qilib belgilangan tarmoq boshqaruv va mahalliy hokimiyat organlari esa bu sohada korxonaga hech qanday amaliy ko'mak berayotganlari yo'q. Qaror ilovasida mazkur yo'nalish bo'yicha loyiha quvvati, loyihaning umumiy qiymati (AQSH doll. hisobida) va kiritiladigan xorijiy

investitsiya miqdori (AQSH doll. hisobida) dastlabki texnik iqtisodiy asosnomaga (TEO) ko'ra aniqlik kiritilishi ko'rsatilgan. Biroq qaror qabul qilinganiga ikki yildan ko'proq vaqt o'tgan bo'lishiga qaramasdan bu sohada hanuzgacha aniq taklif ishlab chiqilmagan, zaruriy texnologik uskunalar bo'yicha hamda drojji ishlab chiqarish uchun talab etiladigan mahalliy va chet el bozorlaridagi mavjud xomashyo bazasi o'rganilmagan, investitsiya kiritishga qodir bo'lgan investor topilmagan. Shu sababli loyiha amalga oshirilmagan. Hozirda korxonaning mavjud ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasi 5-6 foizni tashkil etmoqda. Mazkur korxonaga ham muassislar tomonidan aniq yordam ko'rsatilishi zarur.

Biroq, bu sohada muayyan kamchiliklar mavjud. Xususan, investitsiya kiritish masalasi hanuzgacha to'liq hal etilmagan. Hozirda yangi loyiha asosida Xitoy davlati bilan muzokaralar olib borilib, yangi qo'shma korxona tashkil etish yuzasidan kelishuv ishlari olib borilmoqda.

Yuqorida ta'kidlanganidek, paxta tozalash zavodi tuman sanoatining asosini tashkil etadigan yirik korxona bo'lib hisoblanadi. Biz tumandagi sanoat rivojlanishi bo'yicha xaqiqiy ahvolni o'rganishda mazkur korxonaning tuman sanoatidagi salmog'ini dinamik jihatdan tahlil etishga harakat qildik.

1.3. Tumanda qishloq xo'jaligining o'ziga hos hususiyatlari.

Tuman qishloq ho'jaligida fermerlar faoliyatini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishda mavjud yer zahiralaridan oqilona foydalanish, sug'orish me'yori va texnikasiga amal qilish, ularni tuproq ekologik sharoitlariga qarab sug'orish tizimini qo'llash, sho'rlanish, erroziya, botqoqlanish, jarayonlarini oldini olish, agroekologik qonuniyatlarini buzilishiga yo'l qo'ymaslik kabi davlat dasturlari asosida amalga oshirish zarur. Baliqchi tumanida tuproq-ekologik tizimlari xilma-xil qonuniyatlari natijasida paydo bo'lganki, ulardan foydalanishda ekotizm qonuniyatlariga amal qilish, har-bir ekotizm tamoyillari asosida munosabatda bo'lishi lozim. Tumanda aholi ehtiyojlari va davlat man'fatlarini ko'zlab, qishloq ho'jaligi ekinlarining deyarli barcha turlari etishtiriladi.

1.2.3 - jadval

Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar

Ko'rsatkichlar nomi	2016 yil (mlrd,so'm)	2017 yil (mlrd,so'm)	Farqi (+;-)	O'sish sur'ati (foiz)	Viloyat ko'rsatkich i-dagi ulushi (foiz)
Sanoat mahsulotlari	408,6	441,9	58	103,0	3,3
shu jumladan, hududiy sanoat mahsulotlari	206,5	255,0	48,5	123,4	6,7
Xalq iste'mol mollari	198,6	184,5	14,1	92,9	2,0
Qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti	373,6	530,6	153,3	100,5	7,2
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	49,7	46,3	-3,4	77,5	3,9
Qurilish ishlari	95,7	89,8	5,9	72,0	5,1
Chakana savdo aylanmasi	400,5	434,5	34	100,7	5,3
Xizmatlar	250,8	284,2	33,4	102,1	4,3
Tashqi savdo aylanmasi (ming AQSH dollar)	53299,7	53865,4	565,7	101,1	4,8
Eksport (ming AQSH dollar)	47698,7	49537,3	1838,6	103,9	17,9
shu jumladan, hududiy eksport (ming AQSH dollar)	7 854,6	17413,7	9439	198,4	7,0
Import (ming AQSH dollar)	5600,9	4328,1	-1272,8	77,3	0,7

Manba: Baliqchi tumani statistika bo'limi ma'lumotlari asosida muallif hisoblagan

Yaqin yillarga qadar muayyan qishloq ho'jaligi ekinlari yetishtirish o'ziga hos hududiy tafovutlar unchalik ko'zga tashlanmasdi. Biroq, agrar sohada bozor munosabatlarining chuqurlashuvi, tovar ishlab chiqaruvchilar aynan bozor uchun ishlayotganliklarining tobora ko'proq idrok qilishlari tufayli bu jarayonlar

kuzatilmoqda. Boshqacha qilib aytganda, hozirgi kunda bu hududda qishloq ho'jaligi tuproq-iqlimiy sharoitlariga ko'ra hududiy ixtisoslashuvining shakllanish jarayoni ro'y bermoqda. Albatta, bu holni tumanning barcha hududlari uchun bir hil ta'luqli, deb aytish to'g'ri emas. Xususan, tumanning ayrim qishloq aholi punktlarida hududiy ixtisoslashuv yaqqol namoyon bo'lsa, boshqalarida unchalik sezilmaydi. Ixtisoslashuvning chuqurlashib borishi, birinchidan, muayyan ekin turini etishtirish tarixi, avloddan avlodga o'tib kelayotgan yerga ishlov berish usullari va agrotexnikani mukammal bilish hamda avloddan-avlodga qoldirish va muntazam tadbirlarni ozroq bo'lsada ekologik munosabatlar belgisi va takomillashtirish imkonini beradi; ikkinchidan, hududning muayyan ekin tur yetishtirishga ixtisoslashganligi haqidagi axborotlar bozorda haridorlar orasida ham keng tarqaladi. Xaridorlar ongida aynan o'sha hudud mahsuloti boshqalarnikidan afzalroq degan fikrni tug'diradi. Bu esa, o'sha hudud tadbirkorlarining bozorda yetakchi mavqeini egallashlarini ta'minlaydi. Umuman, ekin turlariga ixtisoslashuvi tabiiy-iqlim va ekologik sharoitlar va bozor omili natijasida ro'y beradi.

Bog'dorchilik va uzumchilik tuman agrosanoat komplekslarini yetakchi tarmog'lardan hisoblanib, tumanning yangi o'zlashtirilgan adirlar ekotizimida rivojlantirilgan bo'lib, meva va uzum yetishtirishga ixtisoslashgan fermer ho'jaliklarining yer maydonlari fermerlar uchun ajratilgan jami ekinzorlarni 13,2 foizini tashkil etadi. Shunga qaramasdan, faoliyat ko'rsatayotgan fermer ho'jaliklari orasida bog'dorchilik-uzumchilik yo'nalishidagi fermerlar salmog'i yuqori (44,6 %). Mazkur sohada o'rtacha bitta fermer ho'jaligiga ajratilgan ekin maydonining (6,6ga) nisbatan kamligi bilan tavsiflanadi. Mazkur hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan fermer ho'jaliklari tarkibida bog'dorchilik yo'nalishidagi ho'jaliklar salmog'i mos ravishda 71,0 % va 87,2 % ni, jami ekin maydonlaridagi ulush esa 61,9 5 va 70,0 % ni tashkil etadi. Ta'kidlash joizki, o'rtacha bitta fermer ho'jaligiga to'g'ri keladigan bog' va tokzorlar maydoni bo'yicha farqlar juda katta. Ma'lumki, keyingi yillarda mamlakatimiz ekin maydonlari tarkibida yem-hashak

ekinlari salmog'i keskin kamayib ketdi. Hozirgi paytda tumandagi chorvachilikka ixtisoslashgan 30ta fermer ho'jaliklari ixtiyorida 530 gektarga yaqin yer maydoni bo'lib, u jami fermerlarga ajratilgan ekinzorlarning 2,1 % ni tashkil etadi. Sabzavot-polizchilik yo'nalishida tumanda 21 ta fermer ho'jaligi mavjud bo'lib, ular 31,6 gektar maydonni tashkil etadi. Bu hududda sabzavot va polizchilikka ancha chuqur ixtisoslashganidan dalolat beradi. O'tkazilgan tahlillardan shuni bilish lozimki tumanda sabzavot va poliz ekinlari yetishtirish bo'yicha mavjud imkoniyatlardan to'la foydalanilmayotganini ko'rsatadi. Ma'lumki, qishloq ho'jalik ekinlari ixtisoslashuvi ularning joy relyefiga, tabiiy iqlim ekologik sharoitiga mos holda joylashtirilishi bilan bog'liq. Ushbu omil hisobga olinmagan hollarda hosildorlik past bo'lib, ba'zan qilingan mehnat samarasi sezilarsiz darajada bo'lishi mumkin. Dexqon ho'jaliklari uchun tomorqa yerlarning ajratilishi, qoramolchilikni rivojlantirish maqsadida mikrokreditlar berish tizimining yo'lga qo'yilganligi, arzonlashtirilgan narxlarda kimyoviy o'g'itlar hamda chorva ozuqasi sotish shohobchalarining tashkil etilganligi va boshqalar shular jumlasidandir. Mustaqilligimizning 27 yilligi munosabati bilan qishloqda yashovchi har bir kishi 20 tupdan daraxt ekish tashabbusi joylarda amalga oshirildi. Keyingi yillarda Respublikamiz hukumati tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va ularni turini kengaytirish, qishloq aholisini ish bilan bandligini yaxshilash va daromadlarini oshirish maqsadida asalarichilik, parrandachilik, baliqchilik kabi qishloq ho'jaligining noa'anaviy turlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Asalarichilikka ixtisoslashgan ho'jaliklar asosan tumanning qishloq aholi punktlarida joylashgan. Kichik hududlarni istiqbolli rivojlanishida asalarichilikni keng ko'lamda rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Tabiiy geografik o'rni jihatidan tumanning tog' oldi hududlarida 800-1000 tagacha asalari o'yalarini tashkil etish mumkin. Buning asosiy sabablaridan biri shundaki, asal paydo bo'lishida va durda bog'lashda 12⁰-13⁰S daraja issiqlik kerak. Agarda harorat 45⁰S va undan yuqoriga ko'tarilsa, asalning sifati va shifobaxshlik hususiyati yo'qoladi.

Shuning uchun asal sifatini yaxshilash maqsadida tog' oldi hududlarda va aholi punktlaridan uzoqroq joylarda asalarichilikni rivojlantirish tavsiya etiladi. Bunday hududlarda yetishtiriladigan asallar polifyor asallari hisoblanib, ularning tarkibi aqatsiya, shashir, oqko'ray, yantoq, chitir, g'o'za gullaridan va boshqa o'simliklardan iboratdir. Asal mahsulotini shifobaxshiligi asosan madaniylashgan o'simliklardan tayyorlanuvchi monofyor asallardan ancha farq qiladi.

Hududda baliqchilik sohasida 8 ta fermer ho'jaligi faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning yer maydoni 30 gani tashkil etadi. Bu fermerlar tasarrufidagi hovuzlarda asosan baliqning sazan, amur, oq do'ngpeshona turlari boqiladi. 2015 yil holatiga mahsulot yetishtirish 35-40 tonnaga yetdi. Baliqchi hududini qishloq ho'jaligini barqaror rivojlantirish uchun bir qator muammolar mavjud:

1. Tuman yalpi qishloq ho'jalik mahsulotlari tarkibida Varzik MMTP salmoqli o'rin egallaydi. Biroq, tahlil natijalari Keyingi yillarda bu ko'rsatkichning izchil kamayib borayotganini ko'rsatadi. Xususan, 2000 yilda 18,0% ni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilga kelib, 10,0 % ga tushib qoldi.
2. Tuman hududida shakllangan ixtisoslashuv nisbatan barqaror bo'lib, unda yer-suv resursslari va agroiklim sharoitlaridagi o'ziga hos hususiyatlar yetarlicha hisobga olinmagan;
3. Quruq meva va sabzavotlar ishlab chiqarish, meva va sabzavotlar eksport qilish bo'yicha mavjud imkoniyatlardan yetarlicha foydalanilmayotir;
4. Meva, sabzavot va poliz ekinlarini tayyorlash va saqlash bo'yicha infratuzilma tizimini to'liq rekonstruktsiya qilish va texnik qayta qurollantirish zarur.
5. Yuqoridagi muammolarni hal etish uchun tumanda muayyan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilishi va izchil amalga oshirilishi lozim. Bunda quyidagilar qishloq ho'jaligini barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilanishi lozim:
6. Oziq-ovqat va yem-hashak ekinlarini kengaytirish hisobiga ekin maydonlari tarkibini muqobillashtirish;

7. Tog'oldi hududlaridagi imkoniyatlardan oqilona foydalanish hisobiga chorvachilikning barqaror rivojlanishini ta'minlash;
8. Qshloq ho'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korhonalarni barpo etish va rivojlantirish hisobiga ixtisoslashuvni chuqurlashtirish;
9. Meva va sabzavotlarini tayyorlash va saqlash bo'yicha infratuzilma obyektlarini rivojlantirish, ularning eksportini sezilarli darajada kengaytirish;
10. Eksportga yo'naltirilgan yuqori sifatli quruq meva va sabzavotlar ishlab chiqarish bo'yicha ixtisoslashtirilgan agrofirmalar tashkil etish.

Kishilik jamiyati tabiiy borliqning bir qismi bo'lib, uning mavjudligi va rivojlanishi tabiatning inson ongiga bog'liq bo'lmagan obyektiv qonuniyatlariga ko'p jihatdan bog'liq. Kishilar butun hayoti mobaynida tabiatda yashaydi va o'ziga kerakli barcha narsalarni tabiatdan oladi. Odam foydalanadigan va iste'mol qiladigan hamma narsa tabiat ne'mati bilan inson mehnati mahsulidir. Inson hamma narsani tabiatdan o'z mehnati orqali oladi. Mana shu mehnati bilan u tabiatga ta'sir ko'rsatadi. Insonning tabiatga ta'siri ijobiy bo'lishi ham, salbiy bo'lishi ham mumkin. Bu inson mehnatining qanday tashkil etilishi va amalga oshirilishiga bog'liq, ya'ni inson o'z mehnati bilan tabiatga ta'sir etayotganda tabiiy geografik qonuniyatlarni hisobga olishiga bevosita bog'likdir. O'zbekiston mustaqillikka erishgan vaqtdan boshlab Vatanimiz tinchligi, gullab yashnashi va xalqimiz farovonligiga erishish yo'lida ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish va bunyodkorlik strategiyasi izchil amalga oshirib kelinmoqda.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodi, mustaqil O'zbekistonning davlat va jamiyat qurilishi tizimi bosqichma - bosqich rivojlanmoqda. Ijtimoiy- iqtisodiy islohotlar, kuchli ijtimoiy siyosat natijasida aholining real daromadlari va farovonligi uzluksiz oshib bormoqda. Mohiyati va mazmuni jihatidan mutlaqo o'ziga xos bo'lgan ta'lim va maorif, kadrlar tayyorlash, sog'liqni saqlash va madaniyat tizimlari yaratildi. Hayotimizga Vatan taqdiri haqida qayg'uradigan, mamlakatning buguni, kelajagi uchun mas'uliyatni chuqur his qiladigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalangan, zamonaviy demokratik jamiyat

qurish, mamlakatni modernizatsiyalash yo'lidagi keng miqyosli vazifalarni amalda bajarishga qodir bo'lgan, mustaqil hamda zamonaviy fikrlovchi yangi kadrlar kirib kelmoqda. Mamlakatimizning taraqqiyot va demokratiya yo'lidan izchil borishi O'zbekistonda mavjud bo'lgan boy tabiiy resurslarga tayanadi. Mustaqil taraqqiyotning ilk kunlaridanoq ulardan oqilona foydalanish va kelgusi avlod uchun sof atrof tabiiy muhitni asrab avaylash borasida yo'nalishlar belgilandi.

Hozirgi kunda mamlakatimizning har bir kichik hududlarida atrof-muhit musaffoligini ta'minlash eng asosiy masalalaridan biriga aylanib bormoqda. Xususan, kelgusi avlodga nafaqat boy madaniy merosimizni asrab avaylagan xolda qoldirish, balki, tabiiy boyliklarda ularni xam o'z ulushi va xaqqi borligini prezidentimiz tomonidan ko'p ma'ruzalarida eshitirilgan. Ijtimoiy geografik holat ko'p jihatdan joylarning ekologik xususiyatlariga bog'liq. Geoekologik vaziyat esa aholi salomatligiga ta'sir etuvchi muhim omillardan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ichimlik suvi, uning fizik-kimyoviy tarkibi, sifati, atmosfera havosi, shamol, ovqatlanish rejimi va ratsioni, joylarning sanitar-gigienik holatlari ham tahlil va tadqiq qilinadi. Qishloq hududlari ekologiyasi turli ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanadi. Ichki omil asosan, qishloq xo'jaligida har xil ximikatlar, gerbitsid va pestitsidlardan foydalanish, tuproq erroziyasi va sho'rlanishi, chiqindilar, chorva fermalari, tovuq fabrikalari va boshqa mahalliy xususiyatlar bilan bog'lik. Tashqi omil esa chetdan keluvchi iflos havo, suv, transchegaraviy holatlar negizida yuzaga keladi. Qishloq, odatda, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda shaharga nisbatan passiv, zaifroq aholi punkti hisoblanadi. Shaharlarning ko'p funktsiyaligi, kattaligi, innovatsiya, investitsiya va infratuzilma salohiyatining kuchliligi, iqtisodiyotining ko'p tarmoqliligi va yuqori darajada rivojlanganligi, aholi yashashi, o'qishi, davolanishi, ishlashi uchun imkoniyatlarning keng ekanligi, ularning ta'sirchanligi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizim yoki majmualarda yetakchi ro'l o'ynashini ta'minlab beradi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qisman uni qayta ishlashni joriy etish. Ushbu vazifa boshqalarga ko'ra ko'proq qishloq joylar uchun xosligi bilan ajralib turadi. Ma'lumki, qishloq xo'jaligi yerlari, o'rmon xo'jaligi va yog'och tayyorlash, ovchilik, baliqchilik kabi tarmoqlar asosan qishloq joylarda mujassamlashgan. Baliqchi tumani qishloq joylarini vujudga kelishida qator omillarning ta'siri bo'lgan. Jumladan:

- ✓ iqlimning keskin kontinentalligi ;
- ✓ yerlarning holati;
- ✓ tabiiy oqar suv manbalarining qanday holatdaligi.

Bugungi kunda tuman qishloq joylarini o'rganishda tabiiy, iqtisodiy omillarning kompleks ta'sirini uyg'unlashtirib olib borish zarurdir. Hozirgi kunda tuman qishloqlarini yaxshilash, aholi turmush darajasini ko'tarish borasida ko'pgina chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Shuningdek, obodonlashga, ko'kalamzorlashtirish ishlari keng yo'lga qo'yilgan. Bundan tashqari maishiy xizmat sohalariga bo'lgan e'tibor ham ortib bormoqda. Ammo, qayd qilish joizki, shu kungacha amalga oshirilib kelayotgan chora – tadbirlar bilan bir qatorda, qator kamchilik va muammolar ham mavjud:

1.3.1-jadval

Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer maydonlari (gektar)

Umumiy yer maydoni	-	33892
Jami ekin yer maydoni	-	20440
shu jumladan, sug'oriladigan	-	20440
shundan, sho'rlangan yerlar	-	673
o'rtacha sho'rlanish darajasi	-	54
Meliorativ holati yomon yerlar	-	132
Ko'p yillik daraxtzorlar	-	859
bog'lar	-	38,9
uzumzorlar	-	18
tutzorlar	-	797
mevali ko'chatzorlar	-	5,1
Tomorqa ekin yerlari	-	3704

1.3.2-jadval

Qishloq xo'jaligi korxonalari

Nomlanishi	Jami soni	Ularga biriktilgan yer maydoni (ga)	Ishchilar soni
Qishloq xo'jaligi korxonalari	49	86	406
Fermer xo'jaliklari	859	23174	4294
Dehqonchilik yo'nalishida:	803	22016	3410
paxta-g'allachilik	418	20582	1252
sabzavot-polizchilik	44	140	123
bog'-uzumchilik	30	182	935
bog'dorchilik	109	427	821
uzumchilik	7	18	14
ko'chatchilik	195	667	265
Chorvachilik yo'nalishida:	48	66,4	97
qoramolchilik	43	10,4	88
baliqchilik	4	41	7
Quyunchilik			
boshqalar	1	11	2
shundan, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari	480	25	5044
Dexqonchilik xo'jaliklari	31053	33710	32516

- Qishloq joylari arxitekturasini ko'p joylarda talab darajasida emas. Shaxsiy uylarning qurilish tartibi, tashqi qiyofasi, rangi, orastaligi ayni joy tabiati ijtimoiy – iqtisodiy muhitiga mos bo'lmog'i lozim;
- Tomorqa yerlarini o'z vaqtida suv bilan ta'minlash, ekinlarni tanlash, ortiqcha mahsulotlarni sotish borasida muammolar mavjud;

II BOB. BALIQCHI TUMANINING EKOLOGIYASINI BAHOLASH

2.1. Baliqchi tumanining ekologik holati va unga ta'sir etuvchi omillar.

Ma'lumki, mustaqillik davrida mamlakatimiz demografik rivojlanishi uchun o'ziga xos voqelik-aholi tabiiy o'sish suratining jadal pasayib borishi kuzatilmoqda.

Aholi salomatligi – har bir mamlakat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etuvchi yo'nalishlardan biridir. Shu bois, O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy jabhalari rivojlanish bosqich yillarida sog'liqni saqlash tizimida juda katta ishlar amalga oshirildi. Sog'lom oilani shakllantirish va irsiy kasalliklarga chalinish mumkin bo'lgan holatlarni kamaytirish maqsadida mamlakatimizda turmush qurayotgan shaxslarni nikohdan oldin majburiy ko'rikdan o'tkazish tizimi yo'lga qo'yildi.

Sanitariya–texnik holati:

- Ichimlik suvi bilan ta'minlanganligi : Markazlashgan.
- Kanalizatsiya o'tganligi–mahalliy.
- Isitish tarmog'i mahalliy.
- Yoritilishi: Tabiiy va sun'iy.
- Ventilyatsiyasi: Tabiiy va sun'iy.

Toshqo'rg'on qishlog'ida hozirgi kunda sog'liqni saqlash tizimidagi o'zgarishlar va malakali tibbiyot xodimlarini ortishi, hamda tibbiyot asbob uskunalari kichik hududga kirib kelishi yildan-yilga ortib o'z samrasini bermoqda. Hududdagi mavjud birgina tuman sog'liqni saqlash birlashmasiga qarashli QVP misolida ham rivojlanish bosqichlarini ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, joyning geoekologik xususiyatlari aholi salomatligiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Hududlar bilan hamoxang holda vujudga kelyotgan ekologik muammolarni tahlil qilib ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- Atmosfera havosining ifloslanishi

- Yer usti va yerosti suvlarining ifloslanishi
- Yer resurslari bilan bog'liq ekologik muammolar (tuproq sho'rlanishi va eroziyasi, unumdor yerlarning hosildorligini pasayishi, cho'llanish va boshqalar)

Qishloqda atmosfera havosini ifloslovchi manbalar transport, kichik turdagi maishiy chiqindilarni ochiq holda yo'l chetlariga chiqarilishi bilan bog'liq. Tumani markaziga nisbatan yaqin bo'lishi oqibatida atmosferaga chiqarilayotgan is-gazi boshqa hududlarga nisbatan ancha yuqori xolatda seziladi.

Keyingi yillarda transport vositalarini qishloq xududlarida ham yildan-yilga ko'payib borishi kuzatilmoqda. Transport vositalari sonining yildan-yilga ortib borayotganini hisobga olsak, bu muammolar yanada rivojlanishi mumkin.

Atrof-muhit muhofazasi bevosita davlat nazorat inspeksiyalari tomonidan nazorat qilib boriladi. Shuningdek, tabiat yodgorliklari ham qo'riqlanadi. Keyingi yillarda qishloq joylarni ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlari deyarli barcha hududlarda keng xolda rivojlanib bormoqda. Bu esa kichik xududlarda atmosfera havosini ifloslanishini oldini olishda, axolini kasallikka chalinishiga barham berishda katta ahamiyat kasb etadi. Qishloq hududi asosan adirliklardan iborat bo'lib, uning o'rtacha mutloq balandligi 350-400 metr, yer yuzasi shimoli-g'arbdan janubi-sharqqa tomon pasayib boradi. Bu esa hududda o'ziga xos nozogeografik vaziyatni vujudga keltiradi, ya'ni bunda tumanning yuqori (shimoli-g'arbiy) qismi quyi (janubiy-sharqiy) qismiga nisbatan o'zining iqlim, tuproq, suv tarkibi va boshqa jihatlari bilan sezilarli farqlanadi. Chunki, joylarning balandligi dengiz sathiga nisbatan pasayib borgan sari ularda havoning aylanma harakati, yer osti va yer usti suvlarining xususiyatlari ham o'ziga xos tarzda o'zgarib boradi. Ushbu holatlarning esa mazkur hudud aholisi salomatligiga o'z ta'sirini ko'rsatishi tabiiy.

Aholi salomatligiga sanoatning ma'lum miqdorda ta'siri bo'lsa-da, lekin qishloq aholi salomatligini belgilovchi bosh mezonlardan biri, bu – qishloq xo'jaligidir. Unda band aholining asosiy qismi paxta, g'alla va sabzavotchilik bilan shug'ullanadi. Bu esa ular orasida ayni shu soha bilan uzviy bog'liq bo'lgan

xastaliklarni keltirib chiqaradi. Qishloqda kishilar turmush darajasi va aholi salomatligini yaxshilash, avvalo mamlakatimiz rahbariyati tomonidan belgilangan tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirish, xalq xo'jaligini zamonaviy talab hamda ehtiyoj doirasida rivojlantirish va hududiy tashkil etish, ekologik muhit musaffoligini ta'minlash kabi masalalar bilan chambarchas bog'liq.

Shuningdek, sug'oriladigan yerlari erroziya tufali ham zararlanadi. Chunki, qishloqning relyef xususiyati va joylashgan o'rni erroziyani keltirib chiqaruvchi omillarning rivojlanishiga olib keladi. Bunday jarayonlarni rivojlanishini keltirib chiqaruvchi asosiy omillarga: yog'inning ko'p yog'ishi, nishablikning kattaligi, vaqtincha oqar suvlarning mavjudligi, tuproqning chirindiga kambag'alligi, tuproq xossalarining yomonligi, yer yuzasining o'simliklar bilan kam qoplanganligi, ko'p yerlarning sug'orish ta'siriga tortilganligi, sug'orishning agrotexnika qoidalariga rioya qilinmasligi, yaylov, o'tloq va pichanzorlardan oqilona foydalanmaslik, almashlab ekishni to'g'ri tashkil etmaslik, oqava suvlarni noto'g'ri tashlash kabilar sabab bo'ladi.

Shu bilan birga yaylov erroziyasi ham kuzatilib, bu yaylovlarda chorva hayvonlari noto'g'ri boqilishi oqibatida ularda o'simlik turlarining yo'qolib, tuproq yuzasi ochilib qolishi natijasida atmosfera yog'inlari, xususan, sel va jala hodisalari ta'sirida tuproqning yuvilishiga olib kelmoqda. Defilyatsiyaga esa cho'l zonasidagi yerlarni ko'p o'zlashtirilishi, shamolning yo'nalish tezligiga kartalarni moslab loyixalamaslik, tuproqlar yengil mexanik tarkibli ekanligi, tuproqlarni mexanik, kimyoviy, biologik xossalari yomonligi, chirindi miqdorining ozligi, pushta va jo'yaklarni uzunligi, dala maydonlarida shamol tezligini kamaytiruvchi ihotazorlarni barpo etmaslik, tuproq tiplari va xossalariga qarab qishloq xo'jalik ekinlarini ekmaslik, haydash sifatini buzilishi va ekinlarni ekishda shamol yo'nalishini hisobga olmaslik kabilar sababdir.

Tuman intensiv o'zlashtirilishi va sug'orishning agrotexnika qoidalariga rioya qilmaslik oqibatida irrigatsiya erroziyasi rivojlangan. Bunga dehqonchilik qilinayotgan adirlarida erroziya ta'sirida tuproqning ustki mayin jinsli qatlami yuvilib ketib, shag'alli qatlam ochilib, bu yerlar dehqonchilikka mutloqo

yaroqsiz bo'lib qolmoqda. Irrigatsiya erroziyasi tuproq unumdorligini pasaytiradi, dehqonchilik ishlarini o'z vaqtida o'tkazishga jiddiy to'sqinlik qiladi, paxta hosilini va sifatini kamaytiradi, solingan mineral o'g'itlarni yuvilib ketishiga olib keladi.

Bugungi kunda tuman hududidagi ochiq suv havzalariga qishloq xo'jalik, transport va maishiy xizmat sohalaridan tozalanmagan chiqindilarni oqava suvlarga tushishi natijasida oqar suv manbalari turli darajada ifloslanmoqda. Ochiq suv havzalariga tushayotgan oqava suvlarning aksariyati, mineral moddalar bilan ifloslangan oqava suvlardir. Ular tarkibi tuzlar, kislotalar, ishqorlar, loy, qum va boshqa mineral moddalar bilan to'yingan bo'ladi. Xususan, qishloq xo'jaligi sug'orish ishlari oqibatida undan chiqayotgan oqava suvlar maxalliy axoli xududidan o'tishi hamda turli xil kimyoviy o'g'itlarga to'yingan suvlarni axoli iste'molida foydalanishi natijasida inson salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Yuqoridagi salbiy holatlarni oldini olish va bartaraf etish borasida tumanda ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, hududlarda suv rejimini tartibga solish, hayvonot va o'simlik dunyosini qayta tiklash, o'sib borayotgan havf-xatarning oldini olish maqsadida turli tadbirlar o'tkazilmoqda.

“Suv obyektlarini sohil bo'ylarida bug'lanishi, ifloslanishi va kamayib ketishini oldini olish, ularning maqbul suv rejimi va tegishli holatini saqlab turishga mo'ljallangan suvni muhofaza qilish tegralari va qirg'oq bo'yi mintaqalari ajratiladi” (Suv va suvdan foydalanish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 17-modda).

Olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, paxta bilan band bo'lgan maydonga sarflangan suvning taxminan 54 foizi bug'lanib ketmoqda. Agarda, sug'orishda tuproq suv rejimini hisobga olgan holda va suvdan unumli foydalanish (tuproq ostidan sug'orish) yo'li bilan har bir gektar paxta maydonida bir marta sug'orishni kamaytira olinsa, paxta maydonlarini sug'orishda 190 ming m³ suvni tejash mumkin bo'ladi. Bundan tashqari viloyatning tog'oldi hududlarida ekinlarni sug'orishda tejamli, zamonaviy va ilg'or texnologiyalarni joriy qilish lozim.

2.2. Ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi islohotlar.

Mamlakatimiz demografik rivojlanishida ro'y berayotgan tug'ilish va aholi tabiiy o'sish sur'atlarining pasayishi, shunga mos holda jami aholi tarkibida mehnatga layoqatli aholi salmog'ining ortishiga olib keldi. Bu holat Baliqchi tumani aholisi tarkibida ham kuzatilmoqda. Jumladan, agar 2000 yilda ushbu ko'rsatkich 48,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2009 yilga kelib, u 57,6% ga ko'tarildi. Ta'kidlash joizki, iqtisodiyotda band aholi soni izchil ortib bormoqda va o'tgan davr ichida bu ko'rsatkich 32,8 % ni tashkil etdi. Biroq shunga qaramasdan, mehnatga layoqatli yoshdagi aholi tarkibida iqtisodiyotda band aholi salmog'i uzoq yillardan buyon deyarli o'zgarishsiz saqlanib turibdi. Hozirgi kunda bevosita byudjetdan moliyalashtiruvchi ijtimoiy (sog'liqni saqlash, xalq ta'limi) sohalarda garchi ish xaqi miqdori unchalik yuqori bo'lmasada, biroq, hodimning muqim ish o'рни kafolatlangan. Mazkur sohalarda 10 mingga yaqin hodim ish bilan band bo'lib, ularning jami bandlikdagi salmog'i 14,2 % ni tashkil etadi. Tumanda jami ish bilan ta'minlanganlarning 38,3% ni norasmiy sektorda band bo'lib, ulardan vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajaruvchilar 16,5 % ni, tadbirkorlarga ko'maklashuvchilar 6,6% ni, ro'yxatdan o'tmasdan ishlayotgan xususiy tadbirkorlar 1,7 % ni, hududdan tashqarida ishlovchilar 13,6 % ni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 14 avgustdagi "2009-2012 yillarda Andijon viloyatida sanoatni rivojlantirish va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish Dasturi to'g'risida"gi 232-sonli qarorining 8.2 va 9.2 ilovalarida asosiy e'tibor yangi ish o'rinlari yaratish va aholi bandligini ta'minlash masalalariga qaratilgan. Biz tadqiqot jarayonida mazkur dastur doirasida bajarilgan ishlarni o'rgandik. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, bu sohada 2011 yilda muayyan ishlar amalga oshirilgan.

Agar biz barpo etilgan ish o'rinlarining sanoat tarmoqlari tarkibiga e'tibor qaratsak, ularning 16,25 % ni to'qimachilik, 9,4 % ni qurilish materiallari sanoati, 4%ni elektrotexnika, 4,9 % ni oziq-ovqat, 7,75 % ni mashinasozlik hissasiga to'g'ri kelishini guvohi bo'lamiz. Shuni ta'kidlash joizki, sanoatdagi yangi ish

o'rinlarining asosiy qismi (57,8 %) boshqa tarmoqlarda yaratilgan. Biroq, biz dastur monitoringiga bevosita ma'sul bo'lgan Andijon viloyati iqtisodiyot bosh boshqarmasi xodimlaridan "boshqa tarmoqlar"ning aniq manzilini so'raganimizda, ulardan tayinli javob ololmadik. Shuning uchun dastur loyihasi ishlab chiqilayotganda tegishli davlat organlari bu kabi mavhumliklarga yo'l qo'ymasliklari lozim.

Bizning nazarimizda, dasturning ushbu ilovasida bunday holatlar yagona emas. Xususan, tuman bo'yicha jami yangi yaratilgan (5340 ta) ish o'rinlarining 8,0 % – sanoat, 5,4 5% – qishloq xo'jaligi, 1,4 % – qurilish tarmoqlari hissasiga to'g'ri keladi. Boshqacha qilib aytganda, tuman iqtisodiyotini ko'tarishda juda katta ahamiyatga ega bo'lgan moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari ulushi dastur doirasida yaratilgan ish o'rinlarining bor-yo'g'i 14,8% ni tashkil etgan.

Ayni paytda, yangi ish o'rinlarining 32,6 % kichik korxona va mikrofirmalar tashkil qilish evaziga yaratilgan bo'lsa, 37,6 % uy mehnatini shakllantirish hisobiga barpo etilgan. Ya'ni, dastur doirasida yaratilgan yangi ish o'rinlarini hisobga olish, ularning monitoringini yuritish imkondan tashqarida.

Mehnat bozorida talab va taklif mutanosibligini ta'minlash, iqtisodiyot tarmoqlarini malakali xodimlarga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirish maqsadida tumanda hokim boshchiligida muvofiqlashtiruvchi kengash tuzilgan va "Ta'lim muassasalari bitiruvchilarini sifatli tayyorlash va ular mehnatida samarali foydalanishning 2006-2010 yillarga mo'ljallangan tuman hududiy dasturi" ishlab chiqilgan va hokimning 2005 yil 31 dekabrda 354-sonli Qarori bilan tasdiqlangan. Biz tadqiqot jarayonida mazkur dasturni hamda uning bajarilish holatini o'rganib chiqdik. Tuman iqtisodiyotining joriy va istiqbol rivojlanish rejalari hisobga olingan holda, mazkur dasturga har yili qo'shimchalar va o'zgarishlar kiritilishi lozim.

Tumanda aholi bandligini ta'minlash hamon dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

2.2.1-jadval

Andijon viloyati va Baliqchi tumanida "2017 yilda yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini ta'minlash dasturi" asosida yangi ish o'rinlari yaratish parametrlarining bajarilishi

T/r	Ish o'rinlarini tashkil etish manbalari	Andijon viloyati				Baliqchi tumani			
		Prognoz bo'yicha, ish o'rni	Amalda yaratilgan, ish o'rni	O'sish sur'ati, foiz	Jamiga nisbatan, foiz	Prognoz bo'yicha, ish o'rni	Amalda yaratilgan, ish o'rni	O'sish sur'ati, foiz	Jamiga nisbatan, foiz
	Jami yaratiladigan yangi ish o'rinlari	57938	59447	102,6	100,0	5295	5340	100,8	100,0
1.	Yangi yirik ishlab chiqarish ob'ektlarini ishga tushirish, korxonalarni modernizatsiya qilish va kengaytirish	4398	4497	102,3	7,6	261	263	100,8	4,9
2.	Kichik korxona va mikrofirmalar tashkil qilish	17369	17943	103,3	30,2	1738	1741	100,2	32,6
2.1.	shundan, sanoatda	2197	2568	116,9	4,3	163	164	100,6	3,1
3.	Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish	7255	7430	102,4	12,5	768	770	100,3	14,4
4.	Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish	2468	2592	105,0	4,4	275	286	104,0	5,4
5.	Uy mehnatini tashkil qilish	22639	23010	101,6	38,7	1989	2010	101,1	37,6
5.1.	shundan, mehnat shartnomasi asosida kasanachilik	7187	7204	100,2	12,1	495	496	100,2	9,3
6.	Ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilmasini rivojlantirish	3437	3563	103,7	6,0	239	241	100,8	4,5
7.	Ishlamasdan turgan korxonalar faoliyatini yo'lga qo'yish	372	412	110,8	0,7	25	29	116,0	0,5

Manba: Andijon viloyati iqtisodiyot bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisobladi.

Bu mummolarni hal etish uchun qishloq sanoati va xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanishiga yo'naltirilgan davlat maqsadli dasturlarini amalga oshirish orqali yangi ish o'rinlarini barpo etish, shu bilan birga ishchi kuchi eksportini yanada kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Sog'liqni saqlash va ta'lim sohasidagi islohotlarning amalga oshirilishi.
Aholi salomatligi – har bir mamlakat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etuvchi yo'nalishlardan biridir. Shu bois, “mustaqil rivojlanish yillarida respublikamiz sog'liqni saqlash tizimini barpo etishda juda katta ishlar amalga oshirildi. Sog'lom oilani shakllantirish va irsiy kasalliklarga chalinish mumkin bo'lgan holatlarni kamaytirish maqsadida mamlakatimizda turmush qurayotgan shaxslarni nikohdan oldin majburiy ko'rikdan o'tkazish tizimi yo'lga qo'yildi.

O'zbekistonnig deyarli barcha viloyatlarida ona va bola perinital hamda skrining markazlari faoliyat ko'rsatmoqda. Qishloq joylarda barcha homilador ayollar davlat byudjeti mablag'lari hisobidan sog'lom naslni shakllantirish uchun zarur polivitaminlar bilan ta'minlanmoqda. Maxsus davlat dasturi doirasida zamonaviy ona va bola skrining markazlari tarmog'i tashkil etilgan. Ular ishga tushgan 2000 yildan buyon mamlakatimizda irsiy va nuqsonli bolalar tug'ilishi 1,7 marta kamaydi.

Respublikamizda ikki yoshgacha bo'lgan barcha bolalar bepul emlanmoqda, bu o'z navbatida difteriya, qoqshol, poliomielit kabi kasalliklarga butunlay barham berish imkoniyatini yaratdi. O'zbekistonda kompleks chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida o'tgan 20 yil davomida onalar va go'daklar o'limi 3 barobardan ko'proq kamaydi. O'zbekiston 2011 yilda “Bolalarni asraylik” xalqaro tashkiloti tomonidan tuzilgan 161 mamlakatdan iborat jahon reytingida o'sib kelayotgan yosh avlod salomatligi haqida eng ko'p g'amxo'rlik ko'rsatayotgan davlatlar orasida 9-o'rinni egalladi. 1991 yildan buyon o'tgan davrda yurtimizda odamlarning o'rtacha umr ko'rishini 67 yoshdan 73 yoshga, ayollarning umr ko'rishini esa 75 yoshga uzaytirishga erishildi”. So'nggi o'n yilda davolash-profilaktika muassasalarini modernizatsiya qilish va eng zamonaviy laboratoriya,

tashhis va davolash uskunalari bilan jihozlashga 750 million AQSH dollaridan ortiq miqdorda byudjet mablag'lari yo'naltirildi va imtiyozli kreditlar hamda grantlar jalb qilindi. Mustaqillik yillarida sog'liqni saqlash sohasiga qilingan xarajatlar 3,6 baravar o'sdi va bu yalpi ichki mahsulotga nisbatan qariyb 4,0 % ni, mamlakatning Davlat byudjetida esa 15,7 % dan ortiqni tashkil qilayapti.¹

Mamlakatimizda aholi salomatligini yaxshilash sohasida 1998 yil 10 noyabrda «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni muhim ahamiyat kasb etdi. Unga ko'ra 1998-2005 yillar davomida sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish kontseptsiyasi qabul qilindi. Ushbu ishlar keyinchalik ham izchil davom ettirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 19 sentyabrdagi PF-3923-sonli "Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uni rivojlantirish Davlat dasturini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida"gi Farmonida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan olib kelinadigan tibbiyot uskunalariga, butlovchi buyumlarga, tibbiyot uskunalarini ehtiyot qismlari va sarflanadigan materiallariga nisbatan soliq va bojxona imtiyozlarini qo'llash belgilab berilgan.

Shu bilan birga, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifati, ayniqsa joylarda, tuman va viloyat tibbiyot birlashmalarining moddiy-texnika bazasi holati o'sib borayotgan zamonaviy talablarga hamon javob bermay kelmoqda. Respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarini boshqarish tizimi tubdan takomillashtirish taqozo etmoqda, ularda yetakchi xorijiy tibbiyot markazlarining tajribasini, shuningdek mehnatni tashkil etish va rag'batlantirishning ilg'or shakllarini qo'llash, ularning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va mustahkamlash talab qilinmoqda.

So'nggi yillarda respublikamiz mintaqalarida ekologik vaziyatning yomonlashuvi, aholi sotsial ta'minotidagi o'zgarishlar va shu kabi qator sabablar

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori. "Xalq so'zi" gazetasi 2011 yil 1 dekabr.

oqibatida aholi orasida ayrim kasalliklarning ortib borishi kuzatilmoqda. Bunday xastaliklar orasida, ayniqsa yurak qon-tomir, nafas olish, ovqat hazm qilish, shuningdek, xavfli o'sma kasalliklari ortib bormoqda.

Agar qishloqlarda yuqumli va ovqat hazm qilish a'zolari xastaliklari keng tarqalgan bo'lsa (buning asosiy sababi ko'proq ichimlik suvi sifatining yomonlashuvi), shaharlarda esa ko'proq yurak - qon tomir, nafas olish va baxtsiz hodisalar o'linga olib keluvchi bosh omildir. Shaharda aholining o'ta zich joylashuvi, sanoat korxonalari va transport to'rlarining holati va ular tufayli atrof-muhit ifloslanishi yuqoridagi xastaliklarni keltirib chiqaradi.

Mamlakatimizning boshqa hududlarida bo'lgani kabi Baliqchi tumanida ham aholining kasallanish darajasi shaharda qishloq joylarga nisbatan yuqori. Xususan, jami aholiga nisbatan yil davomida kasallanganlarning salmog'i 2009 yilda o'rtacha tuman bo'yicha 31,2 % ni, QVPlar bo'yicha 26,3 % ni tashkil etgani holda, Baliqchi shahrida bu ko'rsatkich 40,8 % ga yetgan. Keltirilgan ma'lumotlarga tayanib, buguni qayd etish lozimki, ushbu turdagi xastaliklar ko'proq aholi zich, nisbatan iqtisodiy taraqqiy etgan hududlarda yuqori. Agar tumandagi umumiy o'limni aholining jinsiy tarkibi bo'yicha taqqoslasak, qon aylanish a'zolari xastaliklarining ko'proq ayollar orasida tarqalganligini guvohi bo'lamiz.

Tadqiqot jarayonida aholi manzilgohlarining malakali vrachlar va tibbiyot hamshiralari bilan ta'minlanish darajasi QVPlar kesimida o'rganildi. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2004 yil 6 dekabrda 535-sonli buyrug'i vrachlar sonini aniqlashda o'ziga xos mezon vazifasini o'tadi. Ushbu buyruqning 7-ilovasi 1.6-bandida "QVP xizmat ko'rsatadigan aholi soni sog'liqni saqlash tizimidagi yuqori boshqaruv organlari tomonidan har bir QVP uchun alohida belgilanadi. Biroq, bunda o'rtacha bitta umumiy amaliyot vrachi uchun unga birlashtirilgan aholi soni 1500-2000 kishidan ortmasligi kerak" - deb belgilangan. Undan tashqari, buyruqning 16-ilovasida qishloq vrachlik punktlarining namunalari nizomi berilgan bo'lib, uning 1.4-bandida QVPlar bir qancha tiplarga bo'linishi asoslab berilgan. Jumladan, unda shunday yoziladi: "QVP unga

biriktirilgan aholi soni, aholi punktlari, aloqa va transportdan uzoqligi kabi omillarni hisobga olgan holda tashkil etiladi. QVP xizmat ko'rsatadigan aholi soniga bog'liq holda quyidagi tiplarga bo'linadi:

- birinchi tip 1500-2000 kishi;
- ikkinchi tip 2500 dan 3500 kishigacha
- uchinchi tip 3500-5000 kishi va undan ortiq".

Mazkur holatlarni hisobga olgan holda amalga oshirilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tumandagi ayrim QVPlar malakali vrachlar bilan yetarli darajada ta'minlanmagan. Tuman QVPlar 93ta vrachga talab bo'lgani holda, amalda bu ko'rsatkich 80 tani tashkil etadi yoki bu sohadagi ehtiyoj 86 % ga yetkazilgan. Ko'pchilik qishloq vrachlik punktlarida mutaxassislar yetishmagan bir holatda, ba'zilarida ularning ortiqchaligi kuzatiladi. Tumandagi qishloq vrachlik punktlari bo'yicha o'rta maxsus ma'lumotli tibbiyot xodimlariga bo'lgan talab 235,25 shtat birligini tashkil etgani holda, amalda ularning soni 391 tani tashkil etadi yoki bu ko'rsatkich ehtiyojga nisbatan 66,2% ga ko'p, demakdir. Tuman sog'liqni saqlash muassasalarining kadrlarga bo'lgan ehtiyojini e'tiborga olib, bizning fikrimizcha, mazkur bilim yurtiga qabul qilinuvchilar soni kamaytirilishi lozim. Zero, tibbiyot kollejini tamomlab, hozirda ishsiz yurgan hamshiralar tumanda ko'pchilikni tashkil etadi.

Ma'lumki, joyning relyef xususiyatlari aholi salomatligiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Muayyan hududlarning balandlik yoki pastlikda joylashganligiga ko'ra u yerda yashovchi kishilar salomatligi va kasallik turlari ham o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi.

Inson salomatligini ta'minlovchi asosiy manbalar atrof-muhit, havo, suv va tuproqdir. Lekin ularning tumandagi hozirgi ahvolini qoniqarli deb bo'lmaydi. Namangan viloyati tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, tumanda atmosferaga chiqarilgan zaharli moddalar yiliga 37,5 ming tonnadan ortiqroqni tashkil etadi, bu esa aholi jon boshiga nisbatan o'rtacha 170-175 kg dan to'g'ri keladi, demakdir. Bunday moddalar asosan harakatlanuvchi vositalar tomonidan shakllantirilgan. Tabiiyki, bunday ekologik muhit aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ta'kidlash joizki, Baliqchi tumanida sanoat tarmoqlarining rivoji viloyatda oxirgi o'rinlardan birini egallaydi. Binobarin, aholi salomatligiga sanoatning ma'lum miqdorda ta'siri bo'lsada, bizningcha tuman aholi salomatligini belgilovchi bosh mezonlardan biri, bu-qishloq xo'jaligidir. Chunki qadimdan bu hudud zamini qishloq xo'jaligiga ixtisoslashishi bilan ajralib turgan. Qishloq xo'jaligida band aholining asosiy qismi paxtachilik bilan shug'ullanadi. Bu esa ular orasida ayni pgu soha bilan uzviy bog'liq bo'lgan xastaliklarni keltirib chiqaradi. Sababi-yaqin yillargacha paxta ekin maydonlarida turli xil kimyoviy moddalardan keng foydalanilganligi aholi, va xususan bolalar salomatligiga katta zarar yetkazgan. So'nggi yillarda tumanda ham, respublikaning boshqa mintaqalari kabi, qishloq xo'jaligi bilan band bo'lgan aholi orasida kasbga aloqador bo'lgan kasalliklar ham kelib chiqmoqda. Bunday holat ko'proq ekologik muhitning yomonlashuvi bilan bir qatorda qishloq xo'jaligida texnika vositalaridan to'g'ri foydalanmaslik oqibatidir.

Qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholi orasida olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bunday kasbli kishilar orasida ayniqsa surunkali kasalliklar, jumladan, oshqozon-ichak, ko'z, nafas olish a'zolari va asab tizimi xastaliklari ko'p uchraydi. Xususan, texnika vositalari bilan uzoq yillar ish olib borgan mexanizatorlar va pgunga o'xshash kasb egalarida doimiy qattiq zo'riqish tufayli ma'lum kasalliklar kelib chiqishi aniqlangan. Shuningdek, mazkur sohada faoliyat ko'rsatuvchilar orasida bod, radikulit bilan kasallanganlar ham oz emas.

Ma'lumki, epidemik jarayonlarning o'tishiga ijtimoiy omillarning tabiiy omillardan ko'ra ta'siri ko'proq. Bu o'rinda aholi turmush sharoitlari: turar-joylar holati, aholi zichligi,kanalizatsiya, toza ichimlik suvi va boshqa maishiy inshootlarning bor-yo'qligi, aholining moddiy farovonligi, oziq-ovqat tarkibi, tibbiy sanitariya madaniyati, migratsiya jarayonlari va sog'liqni saqlash sohasi ishlarining ahvoli (umumiy qilib aytganda, ijtimoiy infratuzilma tizimi) muhim mazmunga ega. Ushbu omillarning har biri aholi salomatligiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim tizimini rivojlantirish - xukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning ajralmas tarkibiy qismidir. Zero, hech bir davlat fuqarolari bilim darajasini oshirmasdan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini qo'llamasdan taraqqiyotning yuksak cho'qqilariga erisha olmaydi. Mamlakatimizda istiqlol yillarida ta'lim sohasini isloh qilish bo'yicha juda katta ishlar amalga oshirildi, sohani rivojlantirishning huquqiy-me'yoriy bazasi yaratildi, uning moliyaviy asosi mustahkamlandi. Xususan, 1997 yilda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida" va "Ta'lim to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari qabul qilindi; keyingi yillarda davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ta'lim sohasining ulushi keskin ortdi.

Ta'kidlash joizki, ijtimoiy sohalarni, xususan ta'lim sohasini rivojlantirishga oid davlat tadbirlarining ko'pchiligi mahalliy boshqaruv organlari orqali amalga oshiriladi. Buni mahalliy byudjet tarkibida ta'lim sohasiga ajratilgan mablag'lar o'sishida ham ko'rish mumkin. 2006-2010 yillarda mazkur soha uchun yo'naltirilgan byudjet mablag'lari 3,3 marta oshgan, uning Baliqchi tumani byudjeti xarajatlari tarkibidagi salmog'i esa mos ravishda 47,4 va 54,5 % ni tashkil etgan. Tumanida 67 ta maktab bo'lib, ulardagi 38148 ta o'quvchiga 2941 ta o'qituvchi turli fan yo'nalishlari bo'yicha bilim bermoqdalar. 2004-2009 yillarga mo'ljallangan "Davlat umummilliy dasturi"ga muvofiq, tumandagi 67 ta maktabdan 57 tasi ta'mirdan chiqarildi. Shu jumladan, 13 ta maktab kapital rekonstruktsiya, 31 ta maktab kapital ta'mir, 12 ta maktab joriy ta'mir qilindi. Ular zamonaviy o'quv va laboratoriya jihozlari, o'quv uslubiy materiallar bilan to'liq ta'minlandi.

Tadqiqot jarayonida qishloqlar aholisi tarkibida o'quvchilar salmog'i yordamida qishloq manzilgohlari bo'ylab maktablarning joylashuvidagi muammolar aniqlandi. O'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, 34 ta qishloq manzilgohidagi 54 maktabda 26472 o'quvchi ta'lim oladi va bu sohadagi o'rtacha tuman ko'rsatkichi 18,7 % ni tashkil etadi. Bu sohadagi eng yuqori ko'rsatkichlar

Qo'rg'oncha (49,9%), Toshqo'rg'on (42,5%) va O'rtaqo'rg'on (38,25) qishloqlariga tegishli.

Mazkur hududlarda surunkali elektr energiyasining bo'lmasligi maktab va kollej o'quv xonalarida dars o'tish imkoniyati to'liq emasligini, o'quvchi va o'qituvchilarni dars jarayonida to'liq qatnashishiga to'siq bo'lib, hatto o'quvchilar orasida sog'ligini yo'qotish va kasalliklarga chalinish holatlarini keltirib chiqarmoqda.

Maktabgacha ta'lim muassasalari – Respublikamiz ta'lim tizimining eng quyi bosqichi hisoblanadi. Mazkur soha rivojlanishiga hukumatimiz tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.05.2009 yilda «Xalq ta'limi muassasalari xarajatlarini moliyalashtirish mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 139-sonli qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, moliyaviy-iqtisodiy masalalarni hal etishda bog'cha va yaslilarning mustaqilligini kengaytirish va mas'uliyatini oshirish, ularga buxgalter lavozimini kiritgan holda bosqichma-bosqich yuridik shaxs maqomini berish masalasi ko'zda tutilgan. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash jarayonida tuman hududida joylashgan bolalar bog'chalari soni kamaygan.

Hozirgi paytda tuman xalq ta'limi bo'limi tarkibiga kiruvchi maktabgacha ta'lim muassasalari 49 tani, ularning filiallari esa 20 tani tashkil etadi. Tumanida hozirda 1-7 yoshgacha bo'lgan bolalar soni 13610 nafarni tashkil qilib, shundan 3962 tasi (29,1 %) bolalar bog'chalariga boradilar. Bolalar bog'chalarining umumiy quvvati 5995 tani tashkil etib, hozirda quvvatdan foydalanish darajasi 66,1 % ga teng.

Umuman olganda, 1-7 yoshli bolalarning bog'chalarga qatnash darajasi unchalik yuqori emas. Buning sababi bir necha omillar bilan bog'liq. Jumladan, ko'p hollarda, ayniqsa qishloq joylardagi ota-onalar bog'chaga to'lov pulini to'lashga qodir emaslar. Ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishda kam ishtirok etishlari ularga bevosita farzand tarbiyasi bilan shug'ullanishga imkon yaratadi. Bog'chaga boradigan bolalar orasida ham qish oylarida qatnov sezilarli darajada

kamayadi. Chunki, bolalar bog'chalarida xonalarning isitish tizimi yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Shu sababli ham bog'chalarda guruhlar soni kamayib, 3ta guruhdan kam bo'lgan tumandagi 20 ta bolalar bog'chalari filiallarga aylantirildi.

Ma'lumki, zamonaviy ta'lim tizimida, o'quvchilarga bilim berishda kompyuter texnologiyalarini qo'llash, yoshlarni internetni cheksiz imkoniyatlar foydalanishga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Xukumatimiz tomonidan barcha turdagi ta'lim muassasalarini kompyuter texnikasi bilan ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish maqsadida viloyatning boshqa tuman va shaharlari kabi 7 ta pilot maktablari tashkil etilib, ularga boshqa maktablar pedagog kadrlari kompyuter savodxonligini oshirish uchun biriktirib qo'yilgan. Xar bir maktabda alohida kompyuter sinflari tashkil etilgan. Ayni paytda ta'kidlash joizki, tumandagi barcha maktablarda ham kompyuterdan foydalanish darajasi bir xilda emas. Kompyuter yangi avlodlarining nihoyatda qisqa vaqt ichida ommaviy ishlab chiqarilishi va nisbatan arzon narxda sotilishi tufayli eski rusumli kompyuterlarning o'z-o'zidan ahamiyati pasayib, muomaladan tez chiqib ketmoqda. Tadqiqot jarayonida tuman maktablarining kompyuterlar bilan ta'minlanishi va ularning ishlash holati o'rganildi. 15, 16, 19, 16-maktablarda 1989-1990 yillarda ishlab chiqarilgan Kornet rusumli kompyuter bo'lib, ularning ko'pchiligi ishlamaydi. Ayrim maktablardagi kompyuter sinflari to'liq eski kompyuterlar bilan jihozlangan. Jumladan, 7-maktabda 1992 yilda ishlab chiqarilgan Pravets rusumli 10 ta kompyuter mavjud bo'lib, ularning birontasi ham ishlamaydi. 27, 28-maktablarning har birida 1991 yilda ishlab chiqarilgan Agat rusumli 13 tadan ishlamaydigan kompyuter mavjud. Umuman, tuman maktablari bo'yicha nosoz kompyuterlar 31,1 % ni tashkil etadi. Ularni ta'mirlash uchun ajratilgan mablag'lar esa shunday maqsad uchun zarur bo'lgan summaning bor-yo'g'i 17,2 % ni tashkil etadi.

Shahar va qishloq o'rtasidagi tafovutlarni qisqartirib borish – mamlakatimiz mintaqaviy iqtisodiy siyosatining o'zagini tashkil etadi. Bu esa yoshlarning

intellektual salohiyatidagi farqlarni kamaytirishga ko'p jihatdan bog'liq. Bunda zamonaviy ta'lim vositasi – kompyuter va internetning o'rni mislsiz darajada katta. Biz qishloq yoshlarini kompyuter sohasidagi bilimlarini ularning shaharlik tengdoshlariga qiyosan aniqlashga harakat qildik va ulardan ko'p marta orqada ekanligiga amin bo'ldik. Ko'pchilik qishloq maktablarida kompyuterni mukammal biladigan o'qituvchilar yetishmaydi. Elektr energiyasining tez-tez o'chirib qo'yilishi, o'quvchilarning dala ishlariga ko'p jalb etilishi kompyuterni o'rganishga xalaqit beradigan omillardan hisoblanadi.

Ma'lumki, o'sib kelayotgan yosh avlodning hunar o'rganishi, ma'lum bir kasb egasi bo'lishi uchun shart-sharoit yaratib berish, kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy maqsadlaridan hisoblanadi. Bu sohada yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash vazifasi ta'lim tizimining muayyan bo'g'ini bo'lmish – kasb-hunar kollejlari zimmasiga yuklatilgan. Tadqiqot jarayonida tuman hududida joylashgan kasb-hunar kollejlarining ixtisoslashuvi, ulardagi o'quvchilar qamrovi, bitiruvchilarning ishga joylashish masalalari o'rganib chiqildi.

Hududda kasb-hunar kollejlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qator ijobiy holatlar bilan bir qatorda muayyan xato-kamchiliklar va o'z yechimini kutayotgan muammolar ko'zga tashlanadi. Jumladan, tadqiqot natijalari ta'lim muassasalaridagi ayrim yo'nalishlar mintaqa mehnat bozoridagi talab va taklifni, muayyan kasblarga bo'lgan ehtiyojni yetarlicha hisobga olmasdan tashkil etilganini ko'rsatdi. Tumanda Xalq banki, Agrobank va Mikrokreditbanklarning filiallari mavjud bo'lib, barchasini qo'shib hisoblaganda ularda 25 ga yaqin xodim mehnat qiladilar va ularning deyarli barchasi oliy ma'lumotli mutaxassislardan iborat. Tabiiyki, ulardan birontasi muayyan sababga ko'ra, ishdan bo'shagan taqdirda ham uning o'rniga eng avvalo, yuqori malakali oliy ma'lumotli xodim ishga olinadi. Bu esa mazkur yo'nalish bo'yicha KHKni tamomlagan yuzlab yoshlar har yili ishsizlar safiga qo'shiladilar, demakdir.

“Xo'jalik huquqiy faoliyati” yo'nalishi bo'yicha 2 ta (Baymoq agroiqtisodiyot KHK, Ijtimoiy-iqtisodiy va servis) KHKda ta'lim olayotgan 270 dan ortiq

o'quvchi ham kelgusida o'z ixtisosliklari bo'yicha ish topa olmasliklari yoki ishsizlar safiga qo'shilishlari mumkin.

Tadqiqot jarayonida o'qishni bitirgan yoshlarni ishga joylashish holati o'rganildi. Bilim yurtini tamomlab chiqqan bitiruvchining o'zi egallagan kasbi bo'yicha ishga joylashganligi – muayyan ta'lim muassasasi uchun asosiy natija bo'lib hisoblanadi. 2009-2010 o'quv yilida tuman bo'yicha KHK bitiruvchilarining 40,5 foizi ish bilan ta'minlanganlar. Tabiiyki, tuman hududidagi 10 ta KHKda bu ko'rsatkich bir xil bo'lmay, o'zaro farqlanadilar. Jumladan, bu sohadagi ijobiy natijalar Mustaqillik maishiy-xizmat ko'rsatish KHK (69,5foiz), Sanoat, transport va aloqa KHK (66,7foiz) va Baymoq agroiqtisodiyot KHKlarda (58,9foiz) qayd etildi (3.2.1-jadval). Ayniqsa, mazkur bilim maskanlarining “O'simlikshunoslik bo'yicha fermer xo'jaliklari tashkil etish”, “Tikuvchilik”, “EHM”, “Qishloq xo'jalik mashina va jihozlarini ishlatish va texnik xizmat ko'rsatish”, “Buxgalteriya hisobi”, “Avtotransport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash” yo'nalishlarini tamomlagan yoshlarning juda ko'pchiligi o'z ixtisosliklari bo'yicha ishga joylashganlar.

2009-2010 o'quv yilida Sport kolleji bitiruvchilarining bor-yo'g'i 11,9 % nigina ish bilan ta'minlangan bo'lib, bu sohada mazkur kollej tumanda oxirgi o'rinni egalladi. Maktablarda va sport inshootlarida pedagoglik va trenerlik faoliyatini olib borish faqat oliy ma'lumotli mutaxassislariga yuklatilganligini e'tiborga olsak, bu ko'rsatkich yaqin kelgusida yanada pasayishi mumkin. Ayni paytda, bitiruvchilar orasidagi ishsizlik darajasi (22,3%) bo'yicha ushbu ilm maskani tumanda eng oldingi o'rinlardan birini egallaydi.

Yuqorida keltirilgan tahlil natijalaridan shunday xulosa chiqarish mumkinki, asosan ijtimoiy soha (pedagogik, tibbiy va h.k.) yo'nalishlari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash masalasi og'ir. Bizning fikrimizcha, mazkur yo'nalishlarga qabul qilinadigan o'quvchilar sonini qisqartirish orqali ushbu muammoni hal etish mumkin. Ayni paytda, ushbu muammoning yechimi unga kompleks yondashishni taqozo etadi. Ya'ni, ijtimoiy soha kasb-hunar kollejlariga qabulni kamaytirish bilan

bir vaqtda moddiy ishlab chiqarish tarmoqlariga kadrlar tayyorlash tizimini kuchaytirish, buning uchun esa o'z navbatida mintaqada yangi ishlab chiqarish ob'ektlarini barpo etish zarur bo'ladi.

2.2.2 - jadval

Xizmat ko'rsatish obyektlari

Xizmat shahobchalari	Xizmat ob'ektlari		Ulardagi ish o'rinlari soni	shundan, 2017 yilda tashkil etilgan ob'ektlar
	jami soni	shundan, qishloq joylarda		
Jami xizmat ko'rsatish ob'ektlari:	915	232	2185	75
Savdo shahobchalari	652	121	1351	50
Qurilish mollari do'koni	38	17	81	3
Go'sht do'koni	51	30	102	5
Dorixona	42	16	135	3
Veterinariya dorixonasi	13	3	32	1
Bozorlar	2	-	18	-
Umumiy ovqatlanish shahobchasi	65	24	355	6
To'yxona	7	-	32	1
Sug'urta kompaniyalari	5	-	9	-
Banklar va mini-banklar	6	-	-	-
Boshqa turdagi shahobchalar	34	21	70	6
Jami maishiy xizmat shahobchalari:	478	235	983	85
Sartaroshxonalar	70	49	151	5
Go'zallik salonlari	78	35	197	11
Xammomlar (saunalar)	5	2	15	1
Kiyim tikish va ta'mirlash	78	39	164	17
Poyabzal tikish va ta'mirlash	49	29	61	4
Maishiy jixozlarni ta'mirlash	31	10	35	2
Avtomobillarni ta'mirlash	42	15	99	5
Avtomobillarga yonilg'i quyish shahobchalari	8	1	40	-
Nusxa ko'chirish (kserokopiya) xizmati	61	22	80	11
Buyumlarni ijaraga berish shahobchalari	22	13	30	5
Boshqa turdagi maishiy xizmat ko'rsatish shahobchalari	34	20	111	24

Ayni paytda, ta'kidlash joizki, yangi tashkil etilayotgan KXKlar uchun mutaxassislik yo'nalishlarini belgilashda, afsuski, yo'l qo'yilgan xatolardan to'g'ri

xulosa chiqarmaslik holatlari ko'zga tashlanmoqda va eski xatoliklar takrorlangan. Yuqorida biz aynan mana shu mutaxassisliklarni tamomlagan yoshlar uchun tuman hududida joylashgan korxona va tashkilotlarda ish topilmasligi haqida fikr yuritgan edik. Shunga qaramasdan, yangi qurilgan kollejda yana hududiy mehnat bozorida talab bo'lmagan kadrlarni tayyorlash tizimi yo'lga qo'yilgan.

2.2.3 - jadval

Xizmat ko'rsatish obyektlariga talab

Xizmat ko'rsatish shaxobchalari nomi	Shaxobchalar soni me'yori	Xizmat ko'rsatish shaxobchalari		
		Talab (me'yor)	Mavjud	Farqi (+;-)
Jami:		1577	1558	-131
Savdo do'koni	har 1000 kishiga 1 ta	256	765	509
Qurilish mollari do'koni	har 5000 kishiga 1 ta	40	40	0
Go'sht do'koni	har 1500 kishiga 1 ta	130	55	-75
Dorixona	har 1500 kishiga 1 ta	130	46	-84
Veterinariya dorixonasi	har 10000 kishiga 1 ta	190	10	-180
Umumiy ovqatlanish shaxobchasi	har 5000 kishiga 1 ta	40	72	32
To'yxona	har 10000 kishiga 1 ta	20	7	-13
Sartaroshxona	har 2000 kishiga 1 ta	90	72	-18
Go'zallik saloni	har 5000 kishiga 1 ta	40	95	55
Xammom (sauna)	har 3000 kishiga 1 ta	65	5	-60
Kimyoviy tozalash (qabul punktlari bilan birga)	har 10000 kishiga 1 ta	19	-	-19
Poyabzal tikish va ta'mirlash	har 2000 kishiga 1 ta	90	56	-34
Maishiy jixozlarni ta'mirlash	har 5000 kishiga 1 ta	40	33	-7
Avtomobillarni ta'mirlash	har 1500 kishiga 1 ta	130	45	-85
Avtomobillarga yonilg'i quyish	har 8000 kishiga 1 ta	23	10	-13
Nusxa ko'chirish (kserokopiya)	har 1000 kishiga 1 ta	190	71	-119
Buyumlar ijarasi	har 10000 kishiga 1 ta	19	24	5

2.3.Tuman tabiatdan foydalanish va muhofaza qilishning kelajak istiqbollari.

Kishilik jamiyati tabiiy borliqning bir qismi bo'lib, uning mavjudligi va rivojlanishi tabiatning inson ongiga bog'liq bo'lmagan ob'ektiv qonuniyatlariga ko'p jihatdan bog'liq. Kishilar butun hayoti mobaynida tabiatda yashaydi va o'ziga kerakli barcha narsalarni tabiatdan oladi. Odam foydalanadigan va iste'mol qiladigan hamma narsa tabiat ne'mati bilan inson mehnati mahsulidir. Inson hamma narsani tabiatdan o'z mehnati orqali oladi. Mana shu mehnati bilan u tabiatga ta'sir ko'rsatadi. Insonning tabiatga ta'siri ijobiy bo'lishi ham, salbiy bo'lishi ham mumkin. Bu inson mehnatining qanday tashkil etilishi va amalga oshirilishiga bog'liq, ya'ni inson o'z mehnati bilan tabiatga ta'sir etayotganda tabiiy geografik qonuniyatlarni hisobga olishiga bevosita bog'likdir. O'zbekiston mustaqillikka erishgan vaqtdan boshlab Vatanimiz tinchligi, gullab yashnashi va xalqimiz farovonligiga erishish yo'lida ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish va bunyodkorlik strategiyasi izchil amalga oshirib kelinmoqda. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodi, mustaqil O'zbekistonning davlat va jamiyat qurilishi tizimi bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. Ijtimoiy - iqtisodiy islohotlar, kuchli ijtimoiy siyosat natijasida aholining real daromadlari va farovonligi uzluksiz oshib bormoqda. Mohiyati va mazmuni jihatidan mutlaqo o'ziga xos bo'lgan ta'lim va maorif, kadrlar tayyorlash, sog'liqni saqlash va madaniyat tizimlari yaratildi. Hayotimizga Vatan taqdiri haqida qayg'uradigan, mamlakatning buguni, kelajagi uchun mas'uliyatni chuqur his qiladigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalangan, zamonaviy demokratik jamiyat qurish, mamlakatni modernizatsiyalash yo'lidagi keng miqyosli vazifalarni amalda bajarishga qodir bo'lgan, mustaqil hamda zamonaviy fikrlovchi yangi kadrlar kirib kelmoqda.

Mamlakatimizning taraqqiyot va demokratiya yo'lidan izchil borishi O'zbekistonda mavjud bo'lgan boy tabiiy resurslarga tayanadi. Mustaqil taraqqiyotning ilk kunlaridanoq ulardan oqilona foydalanish va kelgusi avlod uchun sof atrof tabiiy muhitni asrab avaylash borasida yo'nalishlar belgilandi.

Hozirgi kunda mamlakatimizning har bir kichik xududlarida atrof-muhit musaffoligini ta'minlash eng asosiy masalalaridan biriga aylanib bormoqda. Xususan, kelgusi avlodga nafaqat boy madaniy merosimizni asrab avaylagan xolda qoldirish, balki, tabiiy boyliklarda ularni ham o'z ulushi va haqqi borligini prezidentimiz tomonidan ko'p ma'ruzalarida eshitirilgan. Ijtimoiy geografik holat ko'p jihatdan joylarning ekologik xususiyatlariga bog'liq. Geoekologik vaziyat esa aholi salomatligiga ta'sir etuvchi muhim omillardan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ichimlik suvi, uning fizik-kimyoviy tarkibi, sifati, atmosfera havosi, shamol, ovqatlanish rejimi va ratsioni, joylarning sanitar-gigienik holatlari ham tahlil va tadqiq qilinadi. Kichik hududlari ekologiyasi turli ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanadi. Ichki omil asosan, qishloq xo'jaligida har xil ximikatlar, gerbitsid va pestitsidlardan foydalanish, tuproq erroziyasi va sho'rlanishi, chiqindilar, chorva fermalari, tovuq fabrikalari va boshqa mahalliy xususiyatlar bilan bog'lik. Tashqi omil esa chetdan keluvchi iflos havo, suv, transchegaraviy holatlar negizida yuzaga keladi. Odatda, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda shaharga nisbatan passiv, zaifroq aholi punkti hisoblanadi. Shaharlarning ko'p funktsiyaligi, kattaligi, innovatsiya, investitsiya va infratuzilma salohiyatining kuchliligi, iqtisodiyotining ko'p tarmoqliligi va yuqori darajada rivojlanganligi, aholi yashashi, o'qishi, davolanishi, ishlashi uchunimkoniyatlarning keng ekanligi, ularning ta'sirchanligi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizim yoki majmualarda yetakchi ro'l o'ynashini ta'minlab beradi.

Atrof-muhitni asrab avaylash va tabiat in'om etgan resurslardan tejab tergab foydalanish maqsadida davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlardan kelib chiqib yo'lga qo'yilmoqda. E'tiborli jihati yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib qishloqda tabitidan foydalanish va muhofaza qilish bo'yicha quyidagi chora tadbirlar belgilanishi lozim.

1. Hududdagi mavjud bo'lgan o'simlik va hayvonot dunyosining genofondiga salbiy ta'sir etmaslik, biologik xilma-xillikning saqlash va qisqarishiga yo'l qo'ymaslik;

2. Sanoat va boshqa tur chiqindilarning hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik va kam chiqindili texnologiyalarni qishloq xududiga kiritish va demoekologik vaziyatni tartibga solish;
3. Sog'lom va musaffo atrof-muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlashni amalga oshirish bo'yicha maktabgacha ta'lim va o'rta ta'lim tizimlari, maxallalayotgan barcha islohotlarning o'zagini tashkil etgan zamonaviy O'zbekiston uchun zarur bo'lgan atrof tabiiy muhitni asrab avaylashni va uni sog'lomlashtirish va boshqalar.

Qishloq joylarning birlamchi ijtimoiy vazifalaridan biri qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishdan iborat. Bu esa qishloq xo'jaligi va u bilan bog'liq barcha ishlab chiqarish tarmoqlarini avvalroq ilmiy o'rganilishiga asos bo'ladi. Ammo, shunga qaramay, qishloq joylarning asosiy ijtimoiy mohiyatini faqatgina, qishloq xo'jaligi yoki qishloq aholisi bilangina tushuntirish ham to'la ma'no kasb etmaydi. Buning uchun ularni tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va hatto ekologik xususiyatlarini ham to'la qamrab olish kerak. Bularning barchasini o'zida mujassam etgan tom ma'nodagi ilmiy tadqiqotlar bugungi kun talabiga javob bera oladi. Toshqo'rg'on qishlog'ida tabiatni muhofaza qilish bo'yicha quyidagi asosiy vazifalarni bajarish lozim;

1. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qisman uni qayta ishlashni joriy etish. Ushbu vazifa boshqalarga ko'ra ko'proq qishloq joylar uchun hosligi bilan ajralib turadi. Ma'lumki, qishloq xo'jaligi yerlari, o'rmon xo'jaligi va yog'och tayyorlash, ovchilik, baliqchilik kabi tarmoqlar asosan qishloq joylarda mujassamlashgan.

Agrosanoat majmuasiga kiruvchi qayta ishlash sanoatini rivojlantirish imkoniyatiga ega. Yetishtirilgan turli xildagi sabzavotlarni qayta ishlar, xususan maxalliy aholi tomorqasida yetkazilgan ekin hosillaridan foydalanish. Masalan, bu joylarda bevosita xom ashyo bazasiga yaqin meva konserva, vino zavodlarini qurish maqsadga muvofiqdir. Agar paxta tozalash zavodi va u bilan bog'liq bo'lgan yog' oluvchi korxonalarni o'zaro yaqin joyda o'rnashtirilsa, hududiy

ishlab chiqarish majmuasining oddiy shakli vujudga keladi va u katta iqtisodiy samara beradi. Shu bilan birga, qishloqda tog'-kon va qurilish materiallari sanoatini ham ko'rib chiqish mumkin. Sababi katta zahiraga ega shag'al va qum resurslari qurilish materiallari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu korxonalarning joylanishi va rivojlanishi, albatta, ekologik masalalar bilan uyg'unlashtirilgan holda tahlil qilinishi lozim. Zero, qishloq joylarning ekologik holati qishloq xo'jaligida ishlatiladigan ximikatlar, yer osti suvlarining ko'tarilishi va yerlarning sho'rlanishi bilangina emas, balki shahar chiqindilarini ko'mish yoki tashlash bilan ham yomonlashib bormoqda. Shu bois qishloq ekologiyasini o'rganish dolzarb mavzulardandir.

Tumanning rekreatsiyon holatinin yaxshilash va rivojlantishda Andijon - Toshkent magistral yo'li yoqasiga yaqinligi hisobga olgan holda, qishloqning eng chiroyli tabiiy landshaftlarga boy xududlarini yo'lovchilar yoki shaharliklar uchun dam olish maskanlari sifatida foydalansa bo'ladi. Hozirda xo'lalilikning muhim tarmog'iga aylanib borayotgan rekreatsiya xizmatining ko'plab muassasalari (dam olish zonalari, uylari, bolalar lagerlari, turbazalar, sanatoriyalar va pansionatlar) qishloq joylarida vujudga keltirish va shakllantirish mumkin.

1. Tuman istiqbolida ayrim "zamonaviy" turdagi xo'jalik tarmoqlari ham joylashtirish lozim. Ular jumlasiga, qazib oluvchi (qurilish materiallari qazib oluvchi kar'erlar, konlar) va ishlovchi sanoatning ayrim kichik korxonalari kiradi. Bunday korxonalar o'z hajmlarining kichikligi sababli shahar hosil qilishga kichiklik qiladilar.
2. Baliqchi tumani tabiatiga mos bo'lgan o'rmon xo'jaligini rivojlantirish va yog'och tayyorlash ham qishloq joylariga xos funktsiyalardan biridir.
3. Qishloq joylarning tabiatni muhofaza qiluvchi funktsiyasida S.A.Kovalyov ikki turini ajratadi:
4. Har bir hudud o'zining muxofaza etiladigan hududlariga ega bo'lishi lozim. Shu asosda qishloq tabiatini muhofaza qiluvchi tadbirlar (kichik qo'riqxonalar,

kichik zakazniklar, kichik turdagi milliy parklar); shakllantirish albatta ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda.

5. Bizga ma'lumki, qishloqlar shahar chiqitlari "qabristoni" sifatida e'tirof etiladi. Demak qishloqni turli xildagi chiqindilar xoli bo'lishini ta'minlash lozim va kerak bo'lsa yo'l qo'ymaslik.

6. Shuningdek, T.I.Zaslavskaya ularning "tarixiy – madaniy" funksiyasini ham ajratadi (1978,s. 30). Bunda u qishloq aholisining tabiiy takror barpo bo'lishi va uning madaniy – ma'naviy ehtiyojlarini qondirilishini ta'kidlagan.

Qishloq joylarning jamiyatda tutgan o'rni, roli va ahamiyati ularning bajaradigan vazifalardan ham ayon bo'ladi. Yuqorida ularning tashqi vazifalari aytib o'tildi, xolos.Shunga qaramay, ular turli – tuman va bir - biridan farqlanadi. Ularni o'zaro bog'lovchi, uyg'un holda rivojlanishini ta'minlovchi hududiy birikma esa - qishloq joylardir. Mamlakatimizda olib borilgan talaygina ilmiy tadqiqotlar bevosita qishloq xo'jaligiga tegishli bo'lib, qishloq joylariga umumiy ta'rif berilgan xolos. Yoki qishloq xo'jaligi yutuqlari "soyasida" qolib ketgan. Qishloq joylarini o'rganish uncha "Omadi kelmagan" (professor A.S.Soliyev iborasi) sohaligi bugungi kunda barcha ilm ahliga ayon bo'lmoqda.Bugungi kunda qishloq joylarini o'rganishda regional tafovutlar, xususiyatlar va qonuniyatlarga katta e'tibor qaratilmog'i lozim.Tumani vujudga kelgan ekologik muammolarning omillari.

- iqlimning keskin kontinentalligi ;
- yerlarning holati;
- tabiiy oqar suv manbalarining qanday xolatdaligi;
- o'tmish tarixida turli bosqinlarning bo'lganligi, qishloqlarning kelib chiqishi va rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazgan.

Bugungi kunda tuman qishloq joylarini o'rganishda tabiiy, iqtisodiy omillarning kompleks ta'sirini uyg'unlashtirib olib borish zarurdir. Hozirgi kunda tuman qishloqlarini yaxshilash, aholi turmush darajasini ko'tarish borasida ko'pgina chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinyapti. Shuningdek, obodonlash

tirish, ko'kalamzorlashtirish ishlari keng yo'lga qo'yilgan. Bundan tashqari maishiy xizmat sohalariga bo'lgan e'tibor ham ortib bormoqda. Ammo, qayd qilish joizki, shu kungacha amalga oshirilib kelayotgan chora-tadbirlar bilan bir qatorda, qator kamchilik va muammolar ham mavjud:

- Qishloq joylari arxitekturasini ko'p joylarda talab darajasida emas. Shaxsiy uylarning qurilish tartibi, tashqi qiyofasi, rangi, orastaligi ayni joy tabiati ijtimoiy-iqtisodiy muhitiga mos bo'lmog'i lozim;
- Uy-uchun shaxsiy tomorqa yerlari ajratish, ularda qurilayotgan qurilishlarni va tashkil qilinayotgan infratuzilma tarmoqlarini boshqarish yo'lga qo'yilmagan;
- Tomorqa yerlarini o'z vaqtida suv bilan ta'minlash, ekinlarni tanlash, ortiqcha mahsulotlarni sotish borasida muammolar mavjud;
- Qishloq yerlarini obodonlashtirish, ko'kalamlashtirish borasida qator muammolar mavjud. Ayniqsa mevali daraxtlar turi va maydonining kamayib ketganligi salbiy holatdir;
- Qishloq joylarida ichimlik suvi, tibbiy xizmat yo'l qurilishi, dam olish shaxobchalarini tashkil qilish borasida muammolar mavjud
- Shaxsiy tomorqa yerlaridan samarali foydalanishda qator kamchiliklar mavjud. Tomorqa yerlariga ekiladigan kundalik zarur ekin turlari, mevali daraxt turlarini ayni joy tabiatiga xos holda tanlash, ularning ko'lamini belgilash, iste'moldan ortiqcha qishloq xo'jalik mahsulotlarini zahiraga saqlash yoki oqilona bartaraf qilish borasida muammolar bor;
- Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha kichik sanoat korxonalarini tashkil qilish davr talabidir. Shunday qilinganda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini behuda nobud bo'lishidan saqlash, mahalliy aholini ish bilan ta'minlash birmuncha yaxshilangan bo'lur edi;
- Uy-ro'zg'or va boshqa chiqindilarni oqilona bartaraf qilish to'la yo'lga qo'yilmagan;

Inson tabiatning bir bo'lagi, uning ajralmas qismidir. U paydo bo'lgandan buyon tabiatdan o'z ehtiyojlarini qondirib keladi. Bu esa o'z navbatida tabiatga ta'sir orqali amalga oshiriladi. Insonning tabiatga ta'sir kuchi esa kun sayin ortib bormoqda. Aholi sonining ko'payishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan insonning tabiatga ta'sir kuchi, qudratli texnika tufayli tobora kuchayib bormoqda. Jumladan, qishloq landshaftlari ham asrlar davomida inson tomonidan yaratilgan antropogen-madaniy landshaftlarning bir turi hisoblanadi. Antropogen landshaftlar o'zgartirilganlik darajasiga ko'ra xilma-xildir. Ularni turkumlash bo'yicha ham qator fikr, munosabatlar mavjud. Ko'pchilik geograf, ayniqsa landshaftshunoslar antropogen landshaftlar tobora antropogenlashib, oxir-oqibat "madaniy" landshaftlarga aylanadi, deb e'tirof qiladilar. Xaqiqatda ham shunday. Inson tomonidan yaratilgan madaniy landshaftlar yillar sayin takomillashib boradi, latofatli, salobatli bo'lib, zamon talabiga mos chiroy, ko'rinishga ega bo'ladi, lekin ular qanchalik madaniylashmasin ayni joy tabiati bag'rida vujudga keladi.

Tabiat va jamiyat munosabatlarida shu narsa ravshanki, kishilarning turmush darjasi, madaniyati o'sib borgan sari madaniy landshaftlarning madaniylik darajasi ham ortib boradi. "Madaniy landshaftlarni madaniyatli odamlar yaratadi", desak o'rinli bo'ladi. Tabiatni o'zgartirishdan pirovard maqsad madaniy landshaftlar barpo qilish ekan, uning ilmiy asoslarini yaratish geograf, landshaftshunoslarning bevosita vazifasidir.

XULOSA

Baliqchi tumani hududi tekisliklardan iborat. Yanvarning o'rtacha t-rasi-4 gradus, iyulniki 26 gradus. Yiliga o'rtacha 195-210 mm yog'in tushadi. Vegetatsiya davri 235 kun. Tuman hududidan Qoradaryo, Mazgilsoy, Chinobodsoy va Katta Andijon kanali oqib o'tadi. Tuprog'i o'tloqi bo'z, kuchsiz sho'rlangan tuproq. O'simliklardan sho'ra, shuvoq, momaqaymoq, qamish, mingdevona, yantoq, ajriq, yulg'un, oqbosh, otquloq, qirqbo'g'in, g'umay, qo'ypechak, yalpiz o'sadi. Hayvonot dunyosidan echkamar, toshbaqa, tulki, quyon, ilon, kaltakesak, qushlardan laylak, o'rdak, chumchuq, sufito'rg'ay, qarg'a, musicha yashaydi.

Andijon viloyati Baliqchi tumanida asosiy rivojlanish ko'rsatgichlari ya'ni qishloq ho'jaligi, sanoat rivojlanishi, aholi sonining ortib borishi, tumanning ekologik holati, qishloq ho'jalik maydonlarining hozirgi kundagi holatini o'rganish jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi.

- ✓ atmosfera havosining ifloslanishi oldini olishga doir zaruriy choralar ko'rish;
- ✓ suv resurslarining ifloslanishi va chuchuk suv yetishmasligi chuqur tahlil qilish;
- ✓ tuproq sho'rlanishi va tanazzulga uchrashi sabablarini o'rganib chiqib takliflar kiritish;
- ✓ qattiq chiqindilar shu jumladan, zaharli sanoat chiqindilarining to'planishi va ularni qayta ishlashga doir chora-tadbirlar ishlab chiqish;

Bog'dorchilik va uzumchilik ko'proq adirlarning shimoliy va sharqiy qismlarida rivojlantirish. Demak, tumanning barqaror rivojlanishida ekologik sharoiti tarkib topishida turli xo'jalik tarmoqlarining o'rni beqiyosdir.

Yuqoridagilarga asoslanib aytish mumkinki, tumanning asosiy sug'orma dehqonchilik maydonlarini murakkab landshaft-ekologik sharoit vujudga kelgan bo'lib, ularning tabiatidan va tabiiy resurslaridan foydalanishda ehtiyotkorlik choralariga amal qilish bugungi kunning eng asosiy vazifalaridandir.

FOYDALNILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik

ahamiyatga molik nashrlar

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: "Adolat", 2010.
- 2.O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" gi qonuniga sharhlar. -T.: "Sharq", 2011. .
- 3.O'zbekiston Respublikasi "Chiqindilar to'g'risida" gi Qonun, Xalq so'zi, 2002 yil, №93,
- 4.O'zbekiston Respublikasi "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonun, Xalq so'zi, 2000 yil, №24
5. 2015 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2016 yilda iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlari to'g'risida. Xalq so'zi. №33. 2016 yil.
6. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. - T.: O'zbekiston, 2016 yil.
7. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T.: O'zbekiston; 2017 yil.
- 8.Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. - T.: O'zbekiston, 2016yil.
- 9.O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. Tahrir hay'ati: Prator O'.A.,Alixonov B.B. va boshqalar umumiy tahriri ostida; tuzuvchilar: Beloshpov I.V., va b. – T.: Chinor ENK, 2008 yil.
- 10.O'zbekiston Respublikasida atrof muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan foydalanishning holati to'g'risida milliy ma'ruza. T.; Chinor YeNK, 2010.

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar:

- 11.Агальцева А.Н., Боровикова Л.Н. Комплексный подход к оценке уязвимости водных ресурсов в условиях изменения климата // Информация об исполнении Узбекистаном своих обязательств по рамочной конвенции ООН

- об изменении климата. Бюллетень № 5. – Ташкент: САНИГМИ, 2002. – С. 26-35.
- 12.Агальцева А.Н., Боровикова Л.Н.Оценка, уязвимости стока рек бассейна Аральского моря от возможных воздействий изменения климата// Информация об исполнении Узбекистаном своих обязательств по рамочной конвенции ООН об изменении климата.Бюллетень №3.Ташкент: САНИГМИ, 1999. – С. 36-45.
- 13.Baratov P.X., Mamatqulov M.M., Rafikov A.A. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. Toshkent. 2002. -336 b.
- 14.Ботиров Р.С., Яковлев А.В. Мониторинг горных ледников Гиссаро-Алая с использованием космических снимков АСТЭР ТЭРРА//Тр. НИГМИ.-2004.-выпск 3(248).-С. 22-27.
- 15.Глазырина М.Г. Расчет изменения характеристик стока высокогорной реки // МГИ.-2000.- вып.89.-с182-186.
- 16.Глазырин Г.Э., Домашева Н.А., Морозюк Ж.В., Яковлев А.В. Вековой ход климата Ташкента// Изв. Узб.географ.общ. - т.17. -1991. - с. 18-24.
- 17.Груза Г.В., Ранкова Э.Я. Обнаружение изменений климата: состояние, изменчивость и экстремальность климата// Метеорология и. гидрология.- № 4.- 2004.- С. 50-66.
18. Ильин И.А Водные ресурсы Ферганской долины. Л.-Гидрометеоздат. 1959.-247 с.
- 19.Kamolov B., Xalilov J. O'zbekistonda gidrologiya.-Andijon. 2000.-25 b.
- 20.Kamolov B.A., Soliev E.A. Iqlim o'zgarishi davrida So'x daryosi suv rejimidagi o'zgarishlar to'g'risida. Hozirgi zamon geografiyasi: nazariya va amaliyot. Halqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. /320-322 b. Toshkent. 2006 yil.
- 21.Коновалов В.Г., Вильямс М.В. Многолетние колебания оледенения и стока рек Центральной Азии в современных климатических условиях // Метеорология и климатология. - № 9. – 2005. – с. 69-83.

22. Никулина С.Н. Влияние изменения климата на аридность территории Узбекистана // Тр. НИГМИ. -2000. – в.1(146). – 81-85.
23. Ососкова Т.А., Спекторман Т.Ю., Чуб В.Э. Иқлим ўзгариши. – Тошкент. ЎзГИМЭТ.-2006.-54 с.
- 24.Перцигер Ф.И. Водные ресурсы ледникового бассейна: реакция на изменение климата // Информация об исполнении Узбекистаном своих обязательств по рамочной конвенции ООН об изменении климата. Бюллетень № 3. – Ташкент: САНИГМИ, 1999. – с. 31-35.
25. Rasulov A.R., Hikmatov. Umumiy gidrologiya // -Toshkent. –Universitet. – 2003. 327 b.
26. Rasulov A.R., Hikmatov, Aytboev D.P. Hidrologiya asoslari. – Toshkent. – Universitet. – 1995. -175 b.

Internet resurslari :

27. www.unep.org – BMT ning atrof – muhit bo'yicha dostup sayti.
28. www.wordresources.Org- Jahon tabiiy resurslar sayti .
29. www.who.Org-Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining sayti.
30. www.Yillik bo'yicha sayt.